



O'zbekiston Respublikasi  
Ichki ishlar vazirligi nashri

# Postda На посты

Vatanga va xalqqa sadoqat bilan xizmat qilish – oliy burchimiz!

2024-yil

16-may

payshanba

№ 20 (4662)

Gazeta 1930-yil 12-maydan chiqa boshlagan / Web-site: [www.postda.uz](http://www.postda.uz) / E-mail: [info@postda.uz](mailto:info@postda.uz)

## EL ISHIGA YELKA TUTIB...

Namangan viloyati ichki ishlar organlari xodimlari hududda osoyishtalikni saqlash, jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish, sodir etilganlarini «issiq izida» fosh etishga munosib hissa qo'shib kelmoqdalar.

Sohada uzoq yillar xizmat olib borgan, tajribali xodimlarga biriktirilgan yosh mutaxassislar ham nazariy bilimlarini amaliyat bilan uyg'unlashtirmoqda. Shuningdek, shaxsiy tarkibning ma'naviy-ma'rifiy, jismoniy tayyorgarligiga alohida e'tibor qaratilayotgani ijobiyl samara berayotir. Bu jarayonda jamoat tartibini saqlashga mas'ul Namangan shahar IIB saf bo'linmalari PPX otryadi xodimlari alohida namuna ko'rsatishmoqda.

**Suratda:** Namangan shahar IIB saf bo'linmalari PPX otryadi inspektori, safdorlar Ahadjon Saydaliyev va Durdona Baxtiyorova.

(Namangan viloyati ichki ishlar organlari faoliyati haqida gazetaning 8-9-sahifalarida o'qiysiz.)



## NAMUNALI OILA – JAMIYAT POYDEVORI

Ichki ishlar organlari xodimlari o'rtasida «Sog'lom oila – sog'lom jamiyat» g'oyasini keng tatbiq etish, zamonaviy namunali oilani shakllantirish, uning ma'naviy-axloqiy ne-gizlari va an'anaviy qadriyatlarini mustahkamlash, sog'lom

turmush madaniyatini yuksaltirish maqsadida «Namunali oila» ko'rik-tanloving respublika bosqichi o'tkazildi. Unda 17 nafar xodim va ularning oilalari ishtirok etishdi. Ishtirokchilar uchta shart bo'yicha o'zaro bellashdilar.



## KO'RİK-TANLOV

# NAMUNALI OILA - JAMIYAT POYDEVORI

(Davomi. Boshlanishi 1-betda.)

Yakuniy natijalarga ko'ra 3-o'ringa Samarqand viloyati Toyloq tumani IIB JXX Jamoat tartibini saqlash guruhi vaqtincha saqlash hibxonasi boshlig'i, podpolkovnik Furqat Ismoilov oilasi munosib ko'rildi. 2-o'rin Toshkent shahar IIBB JTSB Patrul-post xizmati brigadasi birinchi maxsus safarbarlik batalyoni ikkinchi otryadi guruh komandiri, kaptan Umidjon Mamatov oilasiga nasib etdi. 1-o'ringa esa IIV Axborot xizmati Mass-media bilan ishlash guruhi MTB inspektori, kapitan O'ktam Usmonov oilasi loyiq deb topildi.



– Tanlovga alohida tayyorgarlik ko'rdik. Ay-niqla, kitobxonlik sharti bo'yicha turmush o'rtoq'im bilan birgalikda o'nlab kitoblarni o'qib chiqdik. Shu bahona farzandlarimizning ham adabiyotga qiziqishlari yanada ortdi. Har kuni kitob o'qish bizning oilaviy an'anaga aylandi. Fursatdan foydalanib, ko'rik-tanloving yuqori saviyada tashkil etgan barcha mutasaddilarga o'z minnatdorligimni bildiraman, – deydi kapitan O'ktam Usmonov.

G'oliblarga esdalik sovg'alari topshirildi. Bundan tashqari, turli nominatsiyalar bo'yicha g'oliblarni qo'lga kiritganlar ham munosib rag'batlantirildi.

Madina QAHHOROVA,  
o'z muxbirimiz.





## SHIJOATLI YIGIT-QIZLAR BILAN

Bugun yurtimizda iqtidorli, izlanuvchan, tashabbuskor yoshlar uchun barcha imkoniyatlar eshigi keng ochilgan. Urgut tumanida viloyat 3-sektori rahbari va yoshlar ishtirokida o’tkazilgan tadbirlar ham bu boradagi amaliy ishlar davomi bo’ldi.

Dastlab ishtirokchilar tumandagi erkin iqtisodiy zonada tashkil etilgan ishlab chiqarish korxonalarida bo’lib, bu yerdagi sharoitlar, ishlab chiqarish jarayonlari bilan yaqindan tanishishdi. E’tiborli jihatni, probatsiya nazoratida turgan 5 nafar shaxs doimiy ishl bilan ta’minlandi.

Urgutlik yosh havaskor rassomlarning ijodiy ishlari namoyishi, o’quvchilarning ingliz, rus tillaridagi chiqishlari bilan xorijiy tillarni bilish borasidagi zukkoliklari va voleybol musobaqasi barchaga manzur bo’ldi.

Sektor rahbari tomonidan



bir guruh yoshlarga badiiy kitoblar jamlanmasi tuhfa etildi, 5 nafar yigit-qizga esa ID-kartalar topshirildi.



o’qib, o’rganmoqdaman, – deydi Rayhona Xursanova. – Shu yo’nalishda tadbirkorlik faoliyatimni boshlashtim uchun kredit ajratilishida yordam so’radim. Murojatim o’rganilib, menga kredit beriladigan bo’ldi. Endi mahallamizda ishlab chiqarish sexi tashkil etib, bildirilgan ishonchni oqlash uchun astoydil mehnat qilaman.

Tadbir doirasidagi «Abdulhamid Cho’lpon» spektaklining namoyishi hamda maxsus harbiy texnikalar va jangovar ko’rgazmali chiqishlar ham yoshlarda unutilmas taassurot qoldirdi.

**Gulnoza TURG’UNBOYEVA,  
o’z muxbirimiz.  
Samarqand viloyati.**



– Bugun hayotimda unutmas kun bo’ldi, – deydi Intizor Abdusattorova. – Menga O’zbekiston Respublikasi fuqaroligini tasdiqlovchi hujjat

berildi. Bundan juda xursandman.

– Tikuvchilikka qiziqaman, hozir bilimimni boyitish, tajriba orttirish uchun yana

### PROFILAKTIK OYLIK

## EHTIYOT BO’L, PIYODA!

Korazm viloyatida yil boshidan buyon piyodalarning aybi bilan 33 ta yo’l-transport hodisasi sodir etilgan. Oq’riqli jihatni shuksi, ushbu YTHlar oqibatida 6 kishi hayotdan ko’z yumdi. Bunday ko’ngilsizliklarning oldini olish uchun viloyat hududida 1–31-may kunlari «Diqqat, piyoda!» profilaktik oyligi o’tkazilmoqda.

Oylik doirasida avtomobil yo’llari infratuzilmasini yaxshilashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shu maqsadda yangi yo’lli belgilari o’rnatalyapti, yaroqsiz holga kelganlari almashtirilayapti. Yo’llar va yo’llarning piyodalar o’tish qismini ta’mirlash, tungi yoritish uskunalarini o’rnatish kabi masalalar ham diqqat markazida.

Hozirga qadar yo’llar, xiyobonlar, avtoshohbekatlar, bozorlar va aholi gavjum joylarda harakat xavfsizligini targ’ib qiluvchi 24 ta panno, xalqaro va davlat ahamiyatidagi avtomobil yo’llarining mashinalar yuqori tezlikda harakatlanadigan hududlarida 22 ta ogohlantiruvchi mayoqcha hamda o’quv muassasalari oldiga 172 ta



«O’quvchi piyoda» maketlari o’rnatildi. Xuddi shuningdek, yangi, qabarig shaklidagi piyodalar yo’lakchalarini tashkil etildi. Urganch shahri va Xonqa tumani hududida tajriba sifatida joriy etilgan mazkur yo’lakchalar rang-ba-rangligi hamda tungi paytda nur qaytarishi bilan haydovchi va piyodalar e’tiborini o’ziga tortadi.

Velosipedchilar ishtirokida yo’l-transport hodisalarining oldini olish maqsadida muassasalarda,

korxona va tashkilotlarda uchrashuvlar, davra suhbatlari, o’quv va amaliy mashg’ulotlar o’tkazilmoqda.

Hududlarda sodir etilgan har bir yo’l-transport hodisasi YHXB mas’ul xodimlari, mahalla ahli hamda tegishli tashkilotlar vakillari ishtirokida muhokama qilib borilmoqda.

**Xudoybergan JABBOROV,  
o’z muxbirimiz.  
Xorazm viloyati.**

 Ветераны — наша гордость

## ХАРАКТЕР, ЗАКАЛЕННЫЙ СЛУЖБОЙ

Холодным февральским днем 1988 года личный состав УВД Андижанской области был поднят по тревоге. В актовом зале заместитель начальника УВД полковник Б. Парпиев сообщил, что ночью неизвестными были застрелены сотрудники дорожно-патрульной службы капитан И. Мадаминов и старшина А. Хужамов, несшие службу на автодороге Андижан–Ош, проходящей по территории кишлака Чем. Скрываясь с места происшествия, преступники угнали служебную автомашину сотрудников ГАИ. Неподалеку был обнаружен автомобиль «Жигули» без государственных номеров.

Срочно была сформирована оперативно-следственная группа, которую возглавил начальник отделения уголовного розыска УВД Владислав Гуртовенко. В состав группы вошли лучшие сотрудники, среди которых был и командир отделения роты патрульно-постовой службы сержант Рахматилло Умаров.

В ходе оперативно-розыскных мероприятий было установлено, что автомобиль «Жигули», брошенный подозреваемыми, был зарегистрирован в соседнем Кыргызстане. Следы вели в Джалаабадскую область. В течение пяти суток оперативно-розыскная группа днем и ночью вела поисковую работу. В результате, в городе Майлисае были задержаны трое подозреваемых. В доме одного из них обнаружили обрез охотничье ружья, из которого были застрелены сотрудники ДПС.

— Участие в раскрытии этого преступления произвело на меня огромное впе-



чатление, — рассказывает ветеран органов внутренних дел майор в отставке Р. Умаров. — Немедленно подал рапорт с просьбой перевести меня в подразделение уголовного розыска. Вскоре просьба была удов-

летворена. Меня назначили оперуполномоченным отделения уголовного розыска Андижанского ГОВД.

Рахматилло Умаров 20 лет прослужил в подразделениях уголовного розыска в районных и городских от-

делениях. Не раз задерживал опасных, вооруженных преступников, рискуя здоровьем и жизнью. Вышел на заслуженный отдых в 2004 году с должности старшего оперуполномоченного Управления уголовного ро-

зыска УВД Андижанской области. Затем несколько лет работал консультантом по делам молодежи в махалле Бувасатдин.

Вместе с супругой Одинахон опа они воспитали двух дочерей и сына. В большой семье Умаровых 6 внуков и два правнука.

— Всегда с благодарностью вспоминаю своих наставников подполковников В. Гуртовенко, А. Тиллаева, Д. Юсупова, В. Бутаева, майора А. Жураева, которые учили меня тонкостям оперативной работы, щедро делились опытом, — говорит майор в отставке Рахматилло Умаров.

За годы службы герой нашего рассказа воспитал ряд достойных учеников, таких, как полковники М. Нишанов, Ш. Парпиев, подполковники С. Нишонов, С. Усмонов, майор Ш. Маткосимов.

Ветеран полон сил и энергии. Он частый гость в школах, лицеях Андижана. На встречах с молодежью рассказывает о годах службы, героических соратниках, призывает юношей и девушек быть настоящими патриотами Родины.

**Борис КЛЕЙМАН,**  
соб. корр.  
**Фото автора.**  
Андижанская область.

### ■ Бухарская область

## В ЦЕНТРЕ ВНИМАНИЯ – НЕСОВЕРШЕННОЛЕТНИЕ

Профилактика преступности среди несовершеннолетних и молодежи является одним из важных направлений работы органов внутренних дел. Об этой деятельности рассказывает старший инспектор группы организации профилактики правонарушений среди несовершеннолетних и молодежи ОПП СОБ Ромитанского РОВД капитан Азамат Камолов:

— В рамках государственной программы в Год поддержки молодежи и бизнеса наша группа ведет целенаправленную работу по предупреждению преступности и правонарушений среди этой категории граждан, организации досуга, привлечению к кружкам и спортивным секциям, обеспечению занятости, повышению



правовой грамотности, социальной защите.

В махаллях, общеобразовательных и профессиональных школах проводятся профилактические мероприятия. Совместно с другими правоохранительными органами особое внимание уделяем таким вопросам, как про-

тиводействие экстремизму, распространению идей фанатизма, пропагандируем здоровый образ жизни. В отношении лиц, пагубно влияющих на воспитание несовершеннолетних, принимаются законные меры.

На учете в РОВД состоит 31 несовершеннолетний. Сов-

местно с администрацией школ взяты на внутренний контроль еще 146 подростков. В ходе индивидуальных бесед разъясняем им правовые последствия деяний, противоречащих нормам закона.

**Мирзокул АХАДОВ,**  
соб. корр.

## UCHINCHI SEKTOR FAOLIYATIDAN

## BUXORO VILOYATI

«Xalq bilan uzlusiz muloqot va inson manfaatlari uchun xizmat qilish barcha darajadagi rahbarlar uchun nafaqat majburiyat, balki hayotiy tamoyilga aylanishi shart», deb ta'kidlagan edi davlatimiz rahbari. Bu tamoyil yurtimizning aksar hududlari qatori, Romitan tumani 3-sektor faoliyatining ham asosiy mezoniga aylangan.

Sektor ishini rejali tarzda olib borish va uning monitoringini amalgalashishga oshirish maqsadida tashkil etilgan ishchi guruh tomonidan o'tgan oylar davomida o'tkazilgan o'rghanishlar natijasida aniqlangan muammolarni qisqa vaqt ichida bartaraf qilish choralar ko'rildi. Ayniqsa, «Sayxunobod tajribasi» joriy etilgani va aholi daromadlarini oshirish, fuqarolar bandligini ta'minlashda qo'l kelmoqda. Jumladan,

mahalla», «Obod xonodon» mezolari asosida sektor hududida 376 ta xonadonda ta'mirlash va obodonlashtirish ishlari o'tkazilidi. Aholining murojaatlari asosida «Afrosiyob» mahallasining Amir Temur ko'chasidagi ko'p qavatli 6-uyning suv quvurlarida ta'mirlash ishlari olib borildi hamda qatnov qismi betonlashtirildi. Shu ko'chadagi 7-ko'p qavatli uying 100 metrli qatnov qismi esa asfalt-



mahallalarga xalq va milliy banklarning 12 ta xodimi biriktirildi.

Ushbu xodimlar mahalla raiisi va hokim yordamchisi hamkorligida kam daromadli 86 ta xonadanni tanlab olishdi. Ushbu xonadonlarga 2600 bosh parranda, 148 bosh chorva mollari, 54 quti asalari, 21 tasiga ixcham issiqxonalar, 11 tasiga texnik xizmat ko'rsatish uchun motorolyor va motokultivatorlar berildi.

Sektor hududida buniyodkorlik hamda obodonchilik ishlari ham yaxshi yo'liga qo'yilgan. Xususan, «Obod

lashtirildi. Bundan tashqari, sektor hududidagi 4 kilometr ichki yo'llar shag'allashtirildi, 21 ta yog'och to'sin almashtirildi. Shuningdek, arzonlashtirilgan oziq-ovqat yarmarkasi va ishsiz fuqarolarni hamda probatsiya nazoratida turgan shaxslarni bo'sh ish o'rinaliga joylashtirish maqsadida 15 marotaba mehnat yarmarkasi o'tkazildi. Natijada probatsiya nazoratidagi 165 nafar shaxsning bandligi ta'minlandi.

**Mirzoqul AHADOV,  
o'z muxbirimiz.**

## JIZZAX VILOYATI

Sharof Rashidov tumanidagi «Tuyoqli» mahallasiga ko'klam bilan birga yangilanish, yaratish epkini kirib keldi. Boisi mazkur aholi punktida «Obod mahalla», «Obod xonodon», «Obod ko'cha» dasturlari hayotga tatbiq etilmoqda. Ayni vaqtida tumandagi bir qator tashkilotlardan 10 dan oshiq maxsus texnikalar va 400 nafarga yaqin ishchi-xodim jalb qilingan. Mahalla 3- sektorda joylashgani bois 100 nafardan ziyod ichki ishlar organlari xodimlari aholi turmush darajasini oshirishga qaratilgan tadbirlarda faol ishtiroy etmoqda.



Obodlikka esh dasturlar asosida 3 ming 850 kishi istiqomat qiladigan «Tuyoqli»dagi ko'chalarning 8 kilometriga asfalt, 2 kilometriga shag'al yotqizish, 2 kilometrik piyodalar yo'lakchasinibunyod etish rejalashtirilgan. Shuningdek, zamona tabalalariga mos fuqarolar yig'ini binosini qurish, 38-sonli o'rta umumta'lim maktabini joriy ta'mirlash, elektr transformatori hamda 50 ta yoritkich o'rnatish, 30 ta eskirgan simyog'ochlarni yangilash, 1 ming 300 metr uzunlikdagi elektr simlarni qoplamlisisiga almashtirish mo'ljallangan.

Qolaversa, 1,3 kilometr uzunlikda ichimlik suvi tarmog'i tortish, 3 ta elektr transformatori, suv minorasi hamda 600 metr uzunlikdagi tabiiy gaz tarmog'ini ta'mirlash ko'zda tutilgan. Qurish, pardozi, bo'yash orqali aholi turar joylari va devorlar zamonaviy ko'rinishga keltirilmoqda. Bundan tashqari, daraxt ko'chatlariga shakl va ishlov berilib, yangilari o'tqazilmoqda. Qisqasi, tez orada viloyatdagi yana bir mahalla ko'rkm qiyofaga kiradi.

**Alijon ABDUSATTOROV,  
o'z muxbirimiz.**

## SIRDARYO VILOYATI

Sardoba tumanidagi «Birlashgan» mahallasida yashovchi Ulug'bek Markayevning hayoti birdaniga o'zgarib ketdi. Unga 50 sotix yer maydoni ajratildi. Suvga yaqin, mahallasining shundoq biqinida. Xursandchilikdan uning boshi osmonga yetdi.

Bahorning bir kuni yozning o'n kuniga teng. Qancha erta eksa, shuncha erta yig'ishtirib oladi. Shu bois Ulug'bek darhol ishga kirishdi. Birpasma yerni haydatdi. Yarmiga kartoshka, sabzi, pomidor kabi sabzavot ekinlarini ekdi. Oradan ikki hafta o'tmay, urug'lar unib chiqdi. Rosti, anchadan beri ish topa olmay yurgandi. Ekin maydonining ajratilishi unga katta imkoniyat yaratdi. Yozda hosil mo'la bo'lsa, ro'zg'oridagi yetishmovchiliklarni to'ldirib olishiga ko'zi yetib turibdi.

Prezidentimiz tashabbusi bilan joylarda dehqonchilik uchun yer maydonlarining ajratilishi ko'plab yoshlarni ish-



bilan ta'minlash imkoniyatini yaratyapti, – deydi tuman IIB JXX HPB ijtimoiy profilaktika guruhi katta inspektor, podpolkovnik Shavkat Turunov. – Joriy yilning o'tgan davrida tuman 3-sektoridagi 125 nafar yoshga 50 sotixdan yer ajratilgani fikrimizga misol bo'la oladi.

Sektor hududida to'rtta mahalla bor. «Navro'z», «Fayzullaobod», «Birlashgan», «Paxtakor» mahallalarida jami 20384 nafar fuqaro istiqomat qiladi. Sektor mas'ullari tomonidan ushbu mahallalar da aholi muammolari to'liq o'r ganib chiqilgan. Shu asosda bajarilishi lozim bo'lgan ishlar rejasini tuzilgan. Unga

ko'ra, ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarga ko'mak ko'rsatila boshlandi. Ishsizlar bandligi ta'minlandi. Ko'pchiligi shaxsiy biznesini yuritish uchun subsidiyalar ajratildi.

shug'ullanishga imkon beruvchi ushbu jihozlar bepul tarqatildi. E'tiborli, ular allaqachon tadbirkorlik faoliyatini boshlab yuborgan. «Fayzullaobod» mahallasida yashovchi Nafisa Eshquvvatova shulardan bira. Uning 3 nafar farzandi bor. Tumandagi monomarkazda kasb o'rgandi. Yaqinda tikuvchilik faoliyatini yo'iga qo'yib, bolalar kiyimlarini tika boshladi.

Sektordagi ishlar to'xtagan yo'q. Katta hayotga qadam qo'yayotgan yoshlarni oliy ta'limga, kasb-hunarga yo'naltirish tadorigi ko'rilmoxda. Aholini gaz, elektr energiyasi, ichimlik suvi bilan ta'minlash borasidagi muammolar ham hal etilmoqda.

**Abdurahmon MUSTAQULOV,  
o'z muxbirimiz.**



18 мая – Международный день музеев

## СОПРИКОСНОВЕНИЕ С ИСТОРИЕЙ

**Посещение музея УВД предоставляет уникальную возможность погрузиться в историю и деятельность правоохранительных органов, является важным компонентом воспитания молодежи.**



Студенты Ургенчского государственного педагогического института посетили музей Боевой славы УВД Хорезмской области. У монумента, воздвигнутого в честь сотрудников, погибших при исполнении служебного долга, рассказали о героях, чьи имена высечены на памятных плитах.

Затем студенты ознакомились с богатой экспозицией

музея. Каждый экспонат, фотографии и документы свидетельствовали о славной истории.

Студенты были впечатлены экспозицией, посвященной женщинам-милиционерам. Они узнали, что женщины служили наравне с мужчинами с самых первых дней организации милиции в Хорезмской области, выполняли обязан-

ности по предотвращению и раскрытию преступлений и укреплению общественного порядка.

**Кудрат ХУДАЙБЕРГЕНОВ,**  
преподаватель  
Ургенчского  
государственного  
педагогического  
института.

Хорезмская область.

■ Самаркандская область

## КИНОЛОГ: НА ПУТИ К ПОБЕДАМ

**В Чирчике завершились соревнования по док-биатлону между командами силовых министерств и ведомств. Рядовой Хасан Темиров и его бельгийская овчарка по кличке Джек, представлявшие Самаркандскую область на республиканском этапе конкурса, заняли призовое второе место.**

Рядовой Хасан Темиров с 2020 года работает инспектором-кинологом питомника служебно-розыскного собаководства УППС УВД области.

На счету у Джека десятки задержанных злоумышленников, раскрытые преступления, найденные наркотики.

– В ходе конкурса необходимо преодолеть четыре этапа. Мы работаем в tandem, поэтому перед соревнованиями бегаю по 7 километров, тренируя выносливость и скорость. В начале соревнования участники должны пробежать индивидуальный забег на 3200 метров, выполнить задания с высокой точностью, – рассказывает рядовой Темиров.

Для победы важно и настроение питомца. По сути, слу-



жебная собака – это «биологический детектор», а кинолог – оператор этого «прибора», он распознает реакцию подопечного, определяет, на что в первую очередь необходимо обратить внимание.

По словам инспектора, если собака нашла своего кинолога, то другого она слушать уже не будет. Общий курс дрессировки делится на две части: голосовая команда и команда жестами. Недавно кинологи начали дрессировать и обучать собак при помощи кликера – устройства, издающего звук щелчка при использовании. Оно помогает питомцу лучше запоминать команды.

Рядовой Хасан Темиров в этом году собирается поступать в вуз и готовится к тестовым испытаниям. Нам остается пожелать парню удачи и ярких побед.

**Замира БАЛТАЕВА,**  
соб. корр.

Фото автора.



[www.postda.uz](http://www.postda.uz)



[t.me/postdarasmiy](https://t.me/postdarasmiy)



[www.facebook.com/postdauz](https://www.facebook.com/postdauz)



[www.instagram.com/postda\\_uz](https://www.instagram.com/postda_uz)



## QO'CHQOR OTANI YO'QLAB...

Farg'ona shahridagi «Yangisoy» mahallasida istiqomat qiluvchi, front orti va ichki ishlar organlari faxriysi, iste'fodagi mayor Qo'chqor Dadajonovning fayzli xonadoni shu kunlarda mehmonlar bilan gavjum.

– Harbiy xizmatni 1944-yildan boshlab Samarqand shahrida o'taganman, – deydi Qo'chqor ota yoshlik damlarini eslab. – O'shanda janggohlarda urush avj olgan palla edi. Xat-savodim yaxshi bo'lgani uchun harbiy qismida hujjat yuritishda rahbariyatga yordam berdim. Frontga askarlarni yuborish, oziq-ovqat va boshqa zarur narsalarni yetkazib berish bilan shug'ullandim.

Qahramonimiz harbiy xizmatdan qaytganidan so'ng oliyogoda o'qidi. O'qishni tamomlagach, bir muddat qishloq maktabida yoshlarga saboq berdi. Keyin ichki ishlar organlari xizmatiga kirdi. Dastlab Uchko'pri va Buvayda tumanlarida jinoyat qidiruv sohasida tezkor xodim bo'lib ishladi. Xizmat jarayonida o'zining bor bilimi va iqtidorini, kasbga sadoqatini amalda namoyon etgach, Farg'ona viloyati IIBda turli lavozimlarda xizmat qilib, mayor unvoni bilan pensiyaga chiqdi.

Ayni paytda faxriyining 16 nafar nabirasi, 40 nafardan ziyod chevarasi piri badavlat otaxonning atrofida parvona. Otaxon esa yuz bilan yuzlashayotganiga qaramay, tetik va bardam. Yoshlarga nasihatlar qilib, maslahat va tavsiyalar beradi. Doim kitob o'qishga, ilm o'rganishga, halol mehnat qilishga undaydi.

– Qo'chqor ota Dadajonov juda ko'p yosh xodimlarga sohaning sir-asrorlarini o'rgatgan, – deydi Farg'ona shahar IIOFMB Faxriylar kengashi raisi, iste'fodagi podpolkovnik Tavakkaljon Rahmatullayev. – Shu bois, biz shogirdlarning ustozimizga ehtiromimiz cheksiz. Doim xonadoniga yo'qlab kelsak, samimiy tilaklar bildirib, duo qiladi. Uning purma'no suhabatidan qalbimiz nurga to'ladi.

**Abduvosit SIDIQOV,  
o'z muxbirimiz.**

Farg'ona viloyati.

## SHAXSIY NAMUNA – MUHIM

**Ichki ishlar organlarida ustoz-murabbiyning roli muhim va dolzarbdir. Uning shaxsiy namunasi kasbni egallashga yordam beradi va xodimning shaxsiyatini shakllantirishda katta rol o'yndaydi, xodimlarning to'plagan tajribasi esa avloddan avlodga o'tadi.**

Erkinjon Karimov Andijon elektronika texnikuming iqtisodiyot bo'limini tamomlagach, Andijon viloyati IIB davlat avtoinspeksiyanining yo'l belgililarini o'rnatish bo'linmasida xizmat qila boshladi. So'ngra Andijon shahar yong'in xavfsizligi bo'limida komendant bo'lib ishladi. 2004-yildan beri Ichki ishlar boshqarmasining moliya-iqtisodiyot bo'limi buxgalteri lavozimida faoliyat

ta'minot xizmati bo'linmalarida muvafaqiyatli xizmat olib borishmoqda.

Erkinjon rafiqasi Dildora bilan birga uch farzandni voyaga yetkazmoqda. To'ng'ich qizi Mushtariy Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar institutining 4-bosqich talabasi, o'g'li Davronbek IIV Andijon akademik litseyida 2-bosqichda tahsil oladi, kenjasji Karimjon esa 2-sinfni tamomlayapti.



yuritib kelmoqda. Podpolkovnik Dilmurod Mamajonov va katta serjant Nodirbek Azizov unga ustozlik qildilar.

Shundan beri oradan yigirma yildan ko'proq vaqt o'tdi. Bugun kichik serjant E.Karimovning o'zi ham yoshlarga ustozlik qilmoqda. Uning shogirdlari katta leytenant Ziyodullo Isayev, leytenant Otobek Hojimatov, kichik serjant Otabek Artikov Andijon viloyati IIB Moliyaviy

– Xalq orasida: shogirdsiz ustoz mevasiz daraxtga o'xshaydi, degan gap bor, – dedi suhabat so'ngida kichik serjant E.Karimov. – Men yillar davomida to'plagan tajriba, bilim va ko'nikmalarimni shogirdlarimga yetkazishga harakat qilaman va ularga ruhiy daldha bo'laman!

**Boris KLEYMAN,  
o'z muxbirimiz.**

Andijon viloyati.

## KECHA



## Patrul-post xizmati



## BUGUN


# QO'SHSAHIFADA –

## Tergov xizmati



– Eng so'nggi yangiliklardan biri, boshqarmamizga zamon talabiga javob beradigan, texnik vositalar bilan jihozlangan xizmat avtomashinasi berildi, – deydi viloyat IIB huzuridagi Tergov boshqarmasi o'ta muhim ishlar bo'yicha tergovchisi, mayor Ilyosxon Xo'janov. – Ushbu avtomashini tergov laboratoriysi desa ham bo'ladi. Jinoyatni o'rganish jarayonida voqeа joyiga chiqqanda zamonaviy video va foto kamера yordamida tasvirga olish mumkin. Kompyuter ham bor. Tungi yoritkichlar o'rnatilgani sutkaning istalgan vaqtida ishlash imkonini beradi. Xodimlarning amaliy bilimlarini oshirish maqsadida Uychi tumani IIB huzuridagi Tergov bo'linmasida «virtual poligon» tashkil etildi. Jinoyat sodir bo'lgan joyning portreti sun'iy intellekt yordamida yaratib beriladi.

## Probatsiya xizmati



Viloyat IIB JXX Probatsiya boshqarmasi hisobida 8074 nafar shaxs bo'lib, ularning qayta jinoyat so'dir etishining oldini olish choralari ko'rilmoxda. Jumladan, 7656 nafarining bandligi ta'minlandi.

– Joriy yilning birinchi choragi yakuniga ko'ra, 55 ta sayyor sud tashkil etilib, mehnatga halol munosabatda bo'lgan 841 nafar nazorat ostidagi shaxs hisobdan chiqarilgan, – deydi Probatsiya boshqarmasi katta inspektori, mayor Adhamjon Hojiboyev. – Probatsiya xodimlari bunday toifadagi fuqarolarga hayotda to'g'ri yo'ini topib olishlariga ko'mak bermoqda.

## Namangan shahri

63-bor o'tkazilayotgan gullar bayramida Hindiston, Xitoy, Gollandiya, Turkiya, Ozarbayjon, Yaponiya va Koreya davlatlari o'z gulchilari va gullari bilan ishtirot etishadi.

Shuningdek, Hind madaniyati haftaligi, yapon va koreys san'atkori klari chiqishlari ham tadbirlar doirasidan o'rinni oлган.

Festivalning yuqori saviyada o'tishi, albatta, jamoat tartibini saqlashga bog'liq. Viloyat Ichki ishlar boshqarmasi sohaviy xizmatlari yo'llarda tirbandliklarning oldini olish, bayram bo'lib o'tadigan xiyobon va istirohat bog'larida osoyishtalikni saqlashga munosib hissa qo'shmoqda. Bunda ayniqsa, viloyat IIB JXX JTSB PPXB xodimlari xizmatni namunali tashkil qilishmoqda.



# NAMANGAN VILOYATI

КИТОВ – ENG YAQIN DO'ST

## МА'RIFAT NUR SOCHGAN OILA

Namangan viloyati IIB Jamoat xavfsizligi xizmati Yo'l harakati xavfsizligi boshqarmasi Moliya va moddiy-teknika ta'minoti bo'linmasi katta mutaxassis, kapitan Shukurjon Tursunov nafaqat xizmatda, balki turli ko'rlik-tanlovlarda ham faol qatnashyapti.



Shukurjonning muvaffaqiyatlari odimlari oilaviy hayoti bilan ham bog'liq. Lavhamiz qahramoni turmush o'rtog'i Muqaddas Rahimberdiyeva bilan ahl-inoq turmush kechirib, to'rt nafar farzandni kamolga yetkazishmoqda. Ikki yildan buyon Shukurjon Tursunov oilasi kitobxonlik yo'nalishida o'tkazilib kelinayotgan tanlovlarda g'oliblikni qo'ldan bermay kelmoqda. Ular ichki ishlar organlari xodimlari orasida o'tkazilgan «Namunali oila» ko'rlik-tanlovining viloyat bosqichida faxrli birinchi o'rinni egallahshdi.

– Kitob hayot yo'limizni yorituvchi nur, yaqin maslahatgo'y, sodiq do'st, – deydi Shukurjon. – Buning samarasini o'laroq, «Namunali oila» ko'rlik-tanlovining Respublika bosqichida «Kitobxon oila» nominatsiyasiga loyiq topildik. Biz oilaviy kitobxonimiz. Xonadonimizdagи kutubxonamizni har oyda kamida beshta yangi kitob bilan boyitamiz.

Oila bekasi Muqaddas Konsonsoy tumanidagi maktablaridan birida ona tili va adabiyot fanidan saboq beradi. U yaqinda milliy sertifikatdan yuqori natijaga erishdi va 100 ball to'pladi. Katta farzand Muslimaxon 9-sinfda tahsil olyapti. U ayni paytda Yoshlar ishlari agentligi tomonidan o'tkazilayotgan «Yosh Kitobxon» tanloviga puxta tayyorgarlik ko'rmoqda. 7-sinfda tahsil olayotgan Ilhomjon badiiy kitoblar o'qishda, fikrlash va keng dunyoqarashda aksar tengdoshlaridan ancha ilgarilab ketgan. 4-sinf o'quvchisi Muhisina ham ayni paytda talaygina badiiy kitoblarni o'qib tugatdi.

Ilmu ma'rifatli oilaning intilishlari birgina tanlovda g'o-liblikka erishish uchun emas. Badiiy asarlardan olinadigan insoniylik saboqlari, ayniqsa, farzandlar tarbiyasi uchun muhim. Shukurjon Tursunovlar oilasining bu boradagi tajribalarini keng miqyosda ommalashtirilsa, nur ustiga a'lo nur bo'lardi degan fikrdaman.

ФАХРИЙЛАР – ФАХРИМИЗ

## БИР АСРЛИК УМР ЙЎЛИ

Наманган шаҳрининг «Янги аср» маҳалласида файзли хонадон бор. Каттаю кичикнинг меҳру оқибат кўрсатадиган манзилига айланган бу қутлуғ хонадонда салкам бир асрлик умр йўлини босиб ўтаётган ички ишлар органлари фахрийси Маҳмуджон бобо Жўраев истиқомат қилади.

Қаҳрамонимиз, табаррук отахон ҳозир 94 ёшда. Унинг болалик йиллари айни Иккинчи жаҳон уруши йилларига тўғри келди. Маҳмуджон ота 12 ёшида Наманган туманидаги «Шарқ ўлдузи» жамoa хўжалигига ишлай бошлади. Тириклик тошдан қаттиқ бўлган давр эди. Успиринлик завқини totmай, синовли кунларда астойдил меҳнат қилди. Урушдан сўнг, ИИВ Тошкент олий милиция мактабига ўқишига кириб, уни 1953 йилда тамомлади.

Наманган шаҳар ИИБ ёшлар билан ишлаш бўйича инспектор ёрдамчиси лавозимида ilk хизматини бошлаган, кейинчалик Жиноятқидирив хизматида масъул лавозимларда фаолиятини давом эттириди. 1986 йилда подполковник унвонида иззат-икром билан пенсияга кузатилди.

– Отамнинг изидан бориб, мен ҳам ички ишлар органла-

ри соҳасида хизмат қилдим, – дейди истеъфодаги майор Орифжон Жўраев. – Укам Муҳаммад ҳам ота касбнинг давомчиси бўлди. Отонам биз ўн бир фарзандни жамиятда ўз ўрнимизни топишимиз учун барча шароитларни муҳайё қилишиди. Опа-сингилларим тиббиёт соҳасини танлашган. Катта оила йиғилсан, хонадонимиз тўйхона бўлиб кетади.

Маҳмуджон бобо Жўраев вилоят ИИБ фахрийлари орасида энг ёши улуғи. Айниса, байрамларда уни йўқлаб келган вилоят Ички ишлар бошқармаси ходимларидан миннатдор бўлиб, самимий сұхбат қуриб, кўнгли тоғдек кўтарилади.

– Бугунги ёшларимиз баҳтли, улар бизлар орзу қилган замонда яшашипти. Меҳнат қилган элда азиз, дейдиган замонлар келди. Илоҳим, ёшлар ҳар ишда зафар қушиб, элнинг корига ярасин, – дейди отахон.



Sahifa materiallari Gulchehra BUVAMIRZAYEVA tayyorladi.



# KIBERXAVFSIZLIK – SHAXS VA MA'LUMOT XAVFSIZLIGI

Shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi kunda hayotimizni internetsiz tasavvur qilish juda qiyin. Aksariyat insonlar ko'p vaqtini ijtimoiy tarmoqlarda o'tkazib, dunyoda sodir bo'layotgan yangiliklardan xabardor bo'lish va qiziqarli voqe-hodisalarni bir-biriga uzatishga intilishadi.

Bugungi kunda mam-lakatimiz va dunyo miqyosida sodir bo'layotgan o'zgarishlar, voqe-hodisalar, yangiliklar bilan bog'liq ma'lumotlar barcha ijtimoiy tarmoqlarda aylanmoqda. Bunday imkoniyatlarning ochilishi yaxshi, albatta, lekin g'arazli niyatdagi kimsalar zararli dasturlardan foydalaniib yoki internet foydalanuvchilarining ishonchiga kirib, doimo ularning xato qilihlari payida bo'lishadi. Yo'l qo'ygan birligina xatoyingiz tufayli qimmatli vaqtingizni, kuchingizni sarflab topgan mablag'ingiz bir zumda havoga uchadi.

## IJTIMOIY TARMOQ TAHDIDLARI

Kiberjinoyatchilar tomonidan qo'llaniladigan tahdidlarning turlari foydalanuvchining ijtimoiy tarmoq platformasiga ham bog'liqdir. Misol uchun, «Facebook», «Instagram» ijtimoiy tarmoqlari yoki «Telegram» messenjeri o'z foydalanuvchilarini uchun shaxsiy ma'lumotlarini sir saqlashni kafolatlagan. Shuning uchun jinoyatchilar odatda tahdid qilmoqchi bo'lgan foydalanuvchining internetdagi do'stlari bilan yaqinlashishni maqsad qiladi. Agar tajovuzkor tahdid qilishni rejalashtirayotgan foydalanuvchining bir nechta do'stlarini aniqlasa, u holda, umumiyoq do'stlar soniga qarab, jabrlanuvchi jinoyatchining do'stlik so'rovini qabul qilish ehtimoli paydo bo'ladi.

Shu bilan birga, hozirgi vaqtida veb-saytlar va mobil ilovalar orqali ishlaydigan, biznes va bandlikka yo'naltirilgan onlayn xizmatlarni ko'rsatuvchi «LinkedIn» platformasidan foydalanayotgan shaxs ish izlash uchun o'z rezyumelarini va ish beruvchi ish joyi to'g'risidagi ma'lumotlarni joylashtirishi lozim bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida, ularning ma'lumotlarini boshqalarning ham o'qishiga imkon beradi. Misol uchun: Toshkent shahrida yashovchi S.A. (ayol) ismli shaxs o'zining bank kartasidan 50 mln so'm pul mablag'larini noma'lum shaxslar o'zlashtirib olganligini ma'lum qilgan. Aniqlanishicha, ushbu jinoyatni qoraqalpog'istonlik U.N. ismli shaxs «Telegram»

messenjeridera tadbirkor Alisher Usmonovning videotasvirini o'zgartirib, moddiy yordam berilayotganligi to'g'risidagi soxta havolani jo'natish orqali sodir etgan.

Qashaqadaryo viloyatida yashovchi J.R. ismli shaxs o'ziga tegishli bo'lgan bank kartasidan 20 mln so'm pul mablag'larini no'malum shaxslar o'zlashtirib olganligini ma'lum qilgan. O'tkazilgan tezkor-qidiruv tadbirlari natijasida ushbu jinoyatni Toshkent shahrida yashovchi J.R. ismli shaxs «Telegram» messenjeri orqali o'zining treyderlik faoliyati bilan shug'ullanishini aytib, pullarini birja orqali oz fursatlarda ko'paytirib berishni va'da qilib, aldov yo'li orqali sodir etgan.



## KIBERTOVLAMACHILIKKA SABAB BO'LUVCHI HOLATLAR

Ayrim ijtimoiy tarmoqlar o'z foydalanuvchilari ma'lumotlari (surati, tug'ilgan sanasi, ism-sharifi va boshq.)ni ochiq ko'rsatganligi sababli, jinoyatchilar foydalanuvchiga bildirmagan holda, u haqdagi ma'lumotlarni osingga to'plashi mumkin. Ba'zi tajovuzkorlar jabrlanuvchi shaxs profili yoki ularning do'stlari bilan bog'lanish orqali foydalanuvchi ma'lumotlariga kirish uchun keyingi qadamlarni qo'yadi.

Jabrlanuvchilarning shaxsiy ma'lumotlarini aniqlash uchun ularning ijtimoiy tarmoq ak-kauntlarini ko'rib chiqishlari mumkin. Shaxsiy

ma'lumotlar tajovuzkoriga ijtimoiy muhandislik hujumida jabrlanuvchining ishonchini qozonishga yordam beradi. Bundan tashqari, u akkauntini qayta tiklash uchun foydalaniladigan xavfsizlik savollariga javoblarni taxmin qilish orqali amalga oshiradi.

Jinoyatchi tovlamachilikni amalga oshirishi uchun, avvalo, jabrlanuvchi to'g'risidagi ma'lumotlarni qo'lga kiritishi lozim. Tajovuzkor jabrlanuvchi haqidagi barcha ma'lumotlarni to'plagandan so'ng keyingi qadamni qo'yadi, ya'ni kibertovlamachilikni amalga oshiradi.

**Kibertovlamachilik – shaxsni, gurujni yoki guruhnining biror a'zosini to'lov to'lash yoki o'zlarini xohlagan boshqa ishni qilish uchun onlayn tahdid yoki qo'rqtishdir. Bunda jinoyatchilar o'zlarida mavjud bo'lgan ma'lumotni barchaga oshkor qilish bilan qo'rqtib, jabrlanuvchidan pul, qimmatbaho buyum yoki shunga o'xshash boshqa narsalarni talab qiladi. Jinoyatchilar kibertovlamachilikni amalga oshirish jarayonida jabrlanuvchilarning ma'lumotlarini o'zlashtirish orqali quyidagi salbiy holatlarni yuzaga keltirishi mumkin:**

**doksing** – shaxs haqidagi shaxsiy yoki maxfiy ma'lumotlarni uning roziligidan onlayn qidirish va nashr etishdir. Doksing holatlari sodir etadiganlar dokschilar deb nomlanadi va ular noma'lum foydalanuvchi niqobidagi xakerlardir. So'ngi yillarda doksing virtual olamda kibertovlamachilik sodir etilishida qurol sifatida ishlatalmoqda. Doksing jabrlanuvchini sharmanda qilish, uni to'g'ridan-to'g'ri tanqid qilish, qasos olish uchun mo'ljallangan;

**kiberstalking** – ayrim toifadagi katta yoshdagilarning internet orqali bolalar bilan aloqa o'rnatib, jinsiy ekspluatatsiya qilish maqsadida shaxsiy uchrashuvlar tashkil etishga urinish holatlardir;

**trolling** – internet forumlari va ijtimoiy tarmoqlarda haqoratli mazmundagi so'zlar bilan ig'vagarlik qilib, jabrlanuvchini kamshitish, jahlini chiqarish va nomaqbul harakatlar sodir etishga undash bilan bog'liq qilmish;

**onlayn grumping** – bolani keyinchalik jinsiy ekspluatatsiya qilish maqsadida dastlab bola bilan uchrashib, undan intim foto-videoetasvir oladi. Olgan tasvirlarni o'zlariga yuborishini aytib tovlamachilik qiladi va yangi intim materiallarni shakllantirib boradi. Ushbu materiallardan keyinchalik g'arazli maqsadlarda foydalaniladi.

## OLDINI OLISH USULLARI

Aksariyat kibertovlamachilik holatlari ijtimoiy tarmoqlarda shaxsiy ma'lumotlarni omma-viy ravishda oshkor qilish orqali amalga oshiriladi. Shu bois ijtimoiy tarmoqlardagi tahdidlardan himoyalanish uchun quyidagilarga amal qilish tavsiya etiladi:

o'zingizning shaxsiy, boshqalar ko'rsa uyaladigan su-ratingizni yoki boshqa ma'lumotni yaqin insoningizga, hatto yaxshi ko'rgan kishingiz (qiz yoki yigit)ga yubormang; notanish internet foydalanuvchilari bilan aloqa o'rnatmang;

umumiy «Wi-fi» ulanish nuqtalaridan iloji boricha kamroq foydalaning;

har qanday ma'lumotni onlayn almashtishdan oldin to'xtang va o'ylab ko'ring (Kim mening shaxsiy ma'lumotlarimni so'rayapti? Qanday ma'lumot so'rayapti? Nega ularga ma'lumot kerak?);

ijtimoiy tarmoqlar orqali shubhali havolalar kelsa, aslo ularga kirmang.

**Jamshidjon ERKINOV,  
IIV TQD Kiberxavfsizlik  
markazi yetakchi  
mutaxassis, leytenant.**



ФАХРИЙЛАР – ФАХРИМИЗ

# ОТАСИННИГ ҲИКОЯЛАРИ САБАБ

**«Сабабдан сабаб, балчиқдан иморат» деган экан машойихлар. Жумабойнинг офицерлик касбини танлашига ҳам отасининг муддатли ҳарбий хизматни қандай ўтагани ҳақидаги бири биридан қизиқарли ҳикоялари сабаб бўлган.**

Хуллас, 1985 йил августида собиқ Иттифоқ ИИВ Олий сиёсий билим юртни мувваффақиятли тугаллаган лейтенант Жумабой Носиров дастлаб Украинаадаги конвой полки рота командирининг ўринbosари этиб тайинланди. Ёш офицер зиммасидаги вазифаларни бажаришга ҳеч ҳам қийналмади. Бунда битириув амалиётида эгаллаган кўнкимлари жудаям аскатди. Қолаверса, тажрибали офицерлар ўз кўмагини аяшмади. Аммо юрт соғинчи уни қийнарди.

Мамлакатимиз мустақилликка эришгач, гўёки қанот чиқариб, Ўзбекистон томон учди. 1991 йилнинг декабрида Жумабой Носиров ИИВ Конвой дивизиясига қарашли конвой полкининг рота командири ўринbosари лавозимига тайинланди. Собиқ Иттифоқ тарқаб кетгач, бошқа республикалардан келган офицерларнинг аксарияти ўз юртларига жўнаб кета бошлилди. Миллий кадрлар эса ҳали етишмасди. Шунинг учун Жумабой кези келганда ўз вазифасидан ташқари взвод командири, ҳатто рота командири вазифасини ҳам бажаришига тўғри келарди. Захирадан чақирилган, фуқаролик

олий таълим муассасаларини тутатган ёш офицерларга соҳа сир-асрорларини ўргатарди.

Лавҳамиз қаҳрамони 1992 йилнинг июлида батальон командирининг шахсий таркиб бўйича ўринbosари этиб тайинланди. Ана шундан кейин хизмат пиллапояларидан кўтарила борди. У ИИВ Ички қўшинлар бош бошқармаси марказий аппаратида ишлади, ҳарбий қисм командирининг шахсий таркиб бўйича ўринbosари сифатида фаолият юритди.

Айниқса ИИВ Ички қўшинлар бош бошқармаси йута муҳим иншоотларни қўриқлаш бўйича бошқармаси кадрлар, ташкилий ва жамлаш бўлимининг бошлиғи лавозимида самарали фаолият юритди. Шу сабабли 2004 йил мартаиде мазкур бошқарма бошлиғининг ўринbosари этиб тайинланди. 1999–2005 йиллар мобайнида барча обьектларнинг ишончли қўриқланиши таъминланганида, шахсий таркиб ўртасида қонунбузарлик ҳолатлари содир этилишига йўл қўйилмаганида унинг ҳам муносиб ҳиссаси бор.

2005 йилда полковник Жумабой Носиров бир муддат ИИВ Академия ўқув курсларига бош-



чилик қилди. Кейинчалик ИИВ Қоровул қўшинлари бош бошқармасида турли лавозимларда фаолият юритиб, 2017 йилда ҳурмат-эҳтиром билан пенсияга кузатилди.

Аммо шундан кейин ҳам қаҳрамонимиз уйда оёқ узатиб ётгани, қўл қовуштириб ўтиргани йўқ. Пойтахтимиздаги «Фалаба боғи» ёдгорлик мажмуаси «Шон-шараф» давлат музейида кўчма кўргазмалар бўлимида маърузачи, етакчи мутахассис вазифаларида ишлади. Ҳозир мазкур бўлимининг бош мутахассиси. У ҳамюрларимизни

ҳамда мамлакатимизга ташриф буюрган хорижилкларни Ўзбекистоннинг Иккинчи жаҳон урушида қозонилган ғалабага қўшган ҳиссаси билан танишириб келмоқда. Айниқса, ёшларни ҳарбий ватанпарварлик руҳида тарбиялашга улкан ҳисса қўшмоқда.

Жумабой Носиров ҳали-ҳануз устозларини ҳурмат-эҳтиром билан ёдга олиб туради. Истеъфодаги полковниклар С. Тангибердиев, А. Пачес, Т. Соатов, М. Абдуллаев шулар жумласидандир. Унинг шогирдлари ҳам бир талай. Улардан полковник Ж. Ёкубов, подполковниклар Ҳ. Султонов, А. Эгамбердиев, майор Қ. Назаров ҳамда катта сержант Қ. Хидиров Мудофаа вазирлиги ва Ички ишлар вазирлиги тизимида масъул лавозимларда хизмат қилишмоқда.

Оила бошлиғи сифатида тўрт қизни вояга етказди. Катта қизи Саёҳатхон мазкур музейда фонд сакловчиси. Сабинахон ота ишини давом эттиряпти – кичик сержант. Фарангиз Тошкент тиббиёт академиясида таҳсил олмоқда. Фаринахон 8-синфда ўқиди. Умр йўлдоши Нигора Носирова ўқувчиларга инглиз тилидан сабоқ беради.

**Бобомурод ТОШЕВ,  
ӯз мухбиримиз.**

QO'SHQANOTLAR

## XIZMATDA BAXTINI TOPGANLAR

**Adolat bolalikdan tengqurlari orasida chayirligi va chaqqonligi bilan ajralib turardi. Shu boismi, milliy kurashga mehr qo'ydi, Koson tumani Guvalak qishlog'идаги «Guvalak» sport majmuasida ushbu sport turi bilan shug'ullana boshladi. Bir necha bor o'smir qizlar o'rtaсидаги musobaqalarda dastlab viloyat, keyinchalik respublika miqyosida ham g'olib bo'ldi.**

2003-yilda u IIV Akademiyasiga imtiyozli ravishda kursantlikka qabul qilindi. O'qish davomida ham respublika va xalqaro sport musobaqalarida г'алаба qozonib, yurtimiz bayrog'ini baland ko'tardi. Oly ta'lum muassasini bitirgach esa, ilk xizmat faoliyatini Qashqadaryo viloyati IIB EKB ekspertligidan boshladi. Xizmat davomida voqeja joyidan olingan ashyoviy dalillar ustida tadqiqotlar o'tkazib, jinoyatlarni fosh etishga munosib hissa qo'shdi.

O'tgan yillar suroni katta leytenant Adolat Begimovaning umr yo'lini viloyat IIB Axborot markazi inspektori, serjant Alijon Mahmudov bilan tutashtirdi. 2011-yilda ularning nikoh to'yi bo'lib o'tdi. Er-xotin qo'shqanotlar o'tgan davrda el osoyishtaligini ta'min-

lash, jinoyatlarning ol-dini olish, fuqarolar xavfsizligini ta'minlash borasida samarali xizmat qilishmoqda.

Keyingi yillarda podpolkovnik Adolat Begimova xizmatni Qarshi shahar II OFMB

JXX HPB xotin-qizlar masalalari bo'yicha katta inspektori lavozimida davom ettirdi. Oilaviy nizolarga duch keldi, ayollarga tazyiq o'tkazish, oiladagi mas'uliyatni his qilmaslik kabi ko'plab holatlarni bartaraf etishda fidoyilik ko'rsatdi. Hozirda podpolkovnik A. Begimova Qarshi tumani IIB huquqiy statistika guruhi katta mutaxassisasi lavozimida xizmat qilmoqda.

Leytenant Alijon Mahmudov esa 2022-yili IIV Akademiyasi sirtqi ta'lmini tamomladi. Ayni paytda u viloyat IIB huquqiy statistika va tezkor-hisob ma'lumotlar bo'limi katta inspektori lavozimida xizmat qilmoqda.

Alijon Mahmudov va Adolat Begimova Qarshi shahrida istiqomat qiladi. Ko'p qavatlari uydagи zamonaliviy xona-don kechki payt 3 nafar farzandning chug'ur-chug'uriga to'ladi. Bolalardan biri otasining, boshqasi onasining bosh kiyimini kiyib, harbiy harakatlarni amalga oshiradi. Xizmatda baxtini topgan bu oiladan kelgusida Vatanga, kasbiga sodiq bo'lajak ichki ishlар organlari xodimlari yetishib chiqishiga ishonamiz.

**Sodiq RAHIMOV,  
ӯз muxbirimiz.**

*Qashqadaryo viloyati.*




**Урок духовности и просвещения**

# КИБЕРБЕЗОПАСНОСТЬ – ЛИЧНАЯ И ИНФОРМАЦИОННАЯ БЕЗОПАСНОСТЬ

**Кибербезопасность – ключевой аспект современной жизни.** В эпоху цифровизации личная и информационная безопасность становятся все более уязвимыми. Зависимость от интернета и цифровых устройств делает нас подверженными киберугрозам. Защита личной информации является необходимостью.

Осведомленность о потенциальных опасностях в онлайн пространстве – первый шаг к безопасности. Регулярное обновление программ и антивирусов помогает защитить личные данные. Использование надежных паролей и двухфакторной аутентификации повышает уровень безопасности. Сознательное поведение в интернете – важный аспект кибербезопасности.

Личная и информационная безопасность становятся неотъемлемой частью нашей жизни в эпоху цифровизации. Осознание угроз и уязвимостей в сети – шаг к обеспечению безопасности. Обновление программ и операционных систем, использование надежных паролей и механизмов аутентификации помогает предотвратить несанкционированный доступ к личной информации.

Социальные сети могут стать источником утечки личных данных, поэтому важно быть внимательным к настройкам приватности. Киберпреступники постоянно совершенствуют свои методы атак, поэтому важно оставаться вниматель-

ным и бдительным. Подозрительные электронные сообщения и ссылки следует рассматривать с осторожностью. Защита личной информации на мобильных устройствах также требует особого внимания. Открытые Wi-Fi сети могут стать местом атаки на личные данные. Шифрование данных на устройствах помогает предотвратить их утечку.

Развитие технологий также создает новые угрозы для информационной безопасности. Использование искусственного



интеллекта требует дополнительных мер защиты данных. Обучение сотрудников основам кибербезопасности помогает предотвратить внутренние угрозы. Повышение осведом-

ленности общества – важный аспект предотвращения кибератак. Информационная безопасность включает в себя защиту не только от киберугроз, но и от фейковых новостей и манипуляций. Обучение критическому мышлению помогает увидеть скрытые угрозы в информационном потоке. Продвижение культуры безопасности в цифровом мире становится задачей каждого гражданина. Взаимодействие между государством и гражданским обществом необходимо для эффективной защиты киберпространства. Безопасное онлайн пространство – основа стабильного развития общества.



**1. Используйте надежные пароли:** создавайте уникальные пароли для каждого аккаунта и избегайте использования личной информации.



**3. Будьте осторожны с электронными письмами:** не открывайте подозрительные вложения или ссылки в электронных сообщениях, особенно от незнакомых отправителей.



**2. Обновляйте программное обеспечение:** регулярно обновляйте операционные системы, браузеры и приложения, чтобы исправлять уязвимости.



**4. Используйте антивирусное ПО:** установите надежное антивирусное программное обеспечение на свои устройства и регулярно обновляйте его.



**5. Осознавайте риски:** будьте внимательны к ситуациям, когда ваша личная информация может быть уязвима, и принимайте меры для ее защиты.



**6. Используйте безопасные сети:** избегайте подключения к общественным Wi-Fi сетям без необходимости.

**7. Регулярно создавайте резервные копии данных:** регулярно создавайте копии важных данных на внешние носители или в облачное хранилище для предотвращения потери информации в случае атаки или сбоя системы.



**8. Обучайте себя и своих близких:** изучайте основы кибербезопасности и делитесь полученными знаниями с семьей и коллегами, чтобы помочь им защитить свои данные.



**9. Будьте осторожны в социальных сетях:** ограничивайте доступ к вашему профилю, проверяйте настройки приватности и будьте осторожны с личной информацией, которой вы делитесь онлайн.



**10. Следите за финансовыми операциями:** регулярно проверяйте банковские и кредитные выписки на предмет подозрительной активности и немедленно сообщайте о обнаруженных аномалиях.

 PROFILAKTIK TADBIRLAR

## 24 SOAT DAVOMIDA...

Viloyat IIB JXX sohaviy xizmatlari xodimlari tomonidan G'allaorol tumanida qonunbuzarliklarning oldini olish hamda jinoyatchilikka qarshi kurashish maqsadida bir sutka davomida profilaktik tadbirlar o'tkazildi. Jumladan, 5 ta patrul avtomashinalari da hamda 19 nafar xodim tomonidan yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash choralari ko'rildi. Mazkur jarayonda 82 ta huquqbazarlik aniqlanib, 14 ta avtoulov jarima maydoniga qo'yildi va 4 million 860 ming so'm miqdorida jarima undirildi.

Shuningdek, yaroqsiz holga kelib qolgan yo'l belgilari almashtirilib, Tosh-

kent-Termiz yo'nalishidagi M-39 yo'lining bir nechta avtohalokatlar sodir bo'lgan



1010–1015 kilometrlari oralig'iga ikkita fotoradar o'rnatildi. Ma'muriy nazorat ostida bo'lgan 16 nafar, probatsiya xizmati hisobida turuvchi 17 nafar shaxsning sud tomonidan belgilangan cheklolarga amal qilishlari tekshirilib, profilaktik suhbatlар o'tkazildi.

Tungi xizmatga jalb etilgan xodimlar tumandagi bir qator

aholi punktlarida patrullik qilishdi.

Shuningdek, ko'p qavatlari uylar qarshisida qarovsiz qoldirilgan 39 ta buyum egalariga topshirildi. 48 ta tashkilot, korxona va muassasalarining qo'riqlanishi tekshirildi.

**Alijon ABDUSATTOROV,**  
o'z muxbirimiz.  
*Jizzax viloyati.*

 PROBATSİYA XİZMATI

## INSONGA E'TIBOR ZARUR

Hayot turli tasodiflarga to'la. Inson hayoti davomida bilib-bilmay nojo'ya xatti-harakatga qo'l urishi yoki adashishi mumkin. Bunday vaziyatda unga o'z vaqtida to'g'ri yo'l ko'rsatish, yordam berish xalqimizga xos fazilatlardan biridir.



Prezidentimizning joriy yilning 8 aprel kunida «Ozodlikdan mahrum etish jazosini o'tayotgan, qilmishiga chin ko'ngildan pushaymon bo'lgan va tuzalish yo'liga qat'iy o'tgan bir guruh shaxslarni afv etish to'g'risida»gi farmoni asosida Qoraqalpog'iston Respublikasida ikki nafar mahkum-

ning jazosi ma'lum miqdorda qisqartirilgan bo'lsa, uch nafari shartli ravishda ozod qilindi. Shuningdek, probatsiya hisobida turib, ozodlikni cheklash jazosini o'tayotgan 9 nafar shaxs jazodan to'liq ozod etildi.

Ayni paytda jazodan ozod etilgan shaxslar

tomonidan qayta jinoyat va huquqbazarliklar sodir etishining oldini olish, ularni ijtimoiy moslashtirishga qaratilgan profilaktik tadbirlar olib borilmoqda. Ular probatsiya hisobiga olingach, tibbiy ko'rikdan o'tkazish uchun sog'liqni saqlash birlash-



masiga yo'llanmalar berildi. Shuningdek, hokimliklar huzuridagi maxsus komissiyalar tomonidan bir martalik moddiy yordam ko'rsatildi.

Jazoni ijro etish muassasidan qaytganlar ishga joylashish va boshqa masalalarda turli qiyinchilik hamda to'siqlarga duch keliishi mumkin. Shuning uchun Probatsiya bo'limi xodimlari ulariga amaliy yordam berish

choralarini ko'rishmoqda. Xususan, ular korxona, tashkilot va muassasalaridagi mavjud bo'sh ish o'rinaliga joylashtirilyapti. Har biriga murabbiy biriktirish orqali qayta jinoyat sodir etishining oldi olinyapti. Shuningdek, bu borada boshqa profilaktik chora-tadbirlar ham amalga oshirilmoqda.

**Azamat PIRNIYAZOV,**  
o'z muxbirimiz.  
*Qoraqalpog'iston Respublikasi.*

AYOL VA JAMIYAT

## O'ZGALAR TASHVISHIDA

**Gulbanu asli tomidilik.**  
**Otasining vafotidan keyin singlisi bilan ikkisi onasining qaramog'ida qoldi. Konimex tumaniga kelin bo'lib tushganga ham 5 yil to'ldi. Gulbanu farzandli bo'la olmayotgani sababli uydagi janjallar ni hech ham ko'chaga olib chiqmasdi.**

Mayor Feruza Qo'idosheva mahalla xotin-qizlar faoli va patronaj hamshira bilan shu xonadonga kiranida, navbatdagi mojaror ustidan chiqib qolishdi. Kelinchak tushkun holatda edi. Feruza Qo'idosheva u bilan suhbatlashdi, dardini tingladi. Xotin-qizlar faoli uning qaynonasi va eriga bo'lajak ona nafaqat jismoniy, balki ruhiy tomonidan ham sog'lom bo'lishi, buning uchun unga yaxshi muomalada bo'ilsh, ma'nan va uy yumushlarida ko'maklashish zarurligini hamda ahvol shu tarzda davom etaversa, tazyiq va zo'ravonlikdan muhofaza qilish maqsadida kelinchakka himoya order rasmiylashtirilishi, uning turmush o'rtog'i qonuniy javobgarlikka tortilishi haqida ularni ogohlantirdi. Bir necha soat davom etgan profilaktik suhbatdan so'ng oila a'zolari bir-birlaridan uzr so'-



rashdi. Shu tariqa Gulbanu turmush o'rtog'i va qaynonasi bilan yarashib olishdi.

Lavhamiz qahramoni asli Qiziltepa tumanida tug'ilib voyaga yetdi. Tabiatan bosiq, mulohazali Feruzaning yoshligidagi maqsadi faqatgina ichki ishlar organlari xodimasi

bo'lishgina emas, xotin-qizlarning huquqlarini himoya qilish edi.

2013-yilda IIV Akademiyasini yakunlab Navoiy viloyati Karmana tumanı IIB JXX HPBda ilk xizmat faoliyatini boshladi. Xizmati davomida ustozlaridan o'rganganlarini amaliyotga joriy etish orqali mala-

kasini oshirdi. Huquqiy bilimlarini mustahkamlab, tinimsiz izlandi. So'ngra Navbahor tumani IIB JXX HPB voyaga yetmaganlar masalalari bo'yicha inspektori lavozimida xizmatini davom ettirdi.

Konimex tumani IIB JXX HPB xotin-qizlar masalalari bo'yicha katta inspektori lavozimida ish olib borayotganiga hali ko'p bo'lmadi. Ammo o'zining jonkuyarligi, mas'uliyatni his etishi, ayollarga huquqiy ko'mak ko'rsatishi tufayli konimexlik xotin-qizlar orasida e'tibor qozondi.

Uning sa'y-harakati tufayli «Ayollar daftari»ga kiritilgan xotin-qizlarning bandligini ta'minlash, sog'ligini tiklash choralar ko'rilmoxda, nogiron farzandlari borlariga moddiy yordam va turli xildagi amaliy ko'maklar ko'rsatilyapti.

«Yoshlar daftari»ga kiritilgan xotin-qizlarga esa o'zini o'zi band qilish bo'yicha kredit va subsidiyalar ajratilmoqda. «Yoshlarni vatandavarlik ruhida tarbiyalash» shiori ostida o'quv yig'inlari tashkil etilishida ham mayor Feruza Qo'idoshevanning munosib hissasi bor.

**Mahliyo XOLOVA,  
o'z muxbirimiz.**

Navoiy viloyati.

### YANGI O'ZBEKISTON – YANGI ICHKI ISHLAR ORGANLARI



**I**chki ishlar organlarining moddiy-texnika bazasini yaxshilash, xizmat samaadorligiga erishish, xodimlarga munosib xizmat sharoitlarini yaratib berish borasida davlatimiz tomonidan bir qator ijobjiy ishlar amalga oshirilmoqda.

Yaqinda viloyat IIB JXX JTSB Patrul-post xizmati batalyoniga 76 ta, kinologiya bo'linmasi, konvoy guruhi hamda maxsus muassasalar xodimlariga 18 ta «V-81 MODERN» rusumli elektron planshetlar topshirildi.

### XORAZM VILOYATI

– Ushbu planshetlar ichki ishlar organlarining markaziy axborot tizimiga integratsiya qilingan, – deydiviloyat IIB JXX JTSB boshlig'i, polkovnik S. Rahimov. – Ular yordamida fuqarolarning barmoq izi yoki yuz tuzilishi orqali ularning shaxsini aniqlash hamda zarur ma'lumotlarni tezkorlik bilan olish mumkin. Endilikda fuqarolarning shaxsini aniqlash uchun ularni ichki ishlar bo'limi yoki mahalla huquq-tartibot maskaniga olib borishga hojat qolmaydi.

**Xudoybergan JABBOROV,  
o'z muxbirimiz.**



■ Сырдарьинская область

## КУРСАНТЫ ДЕРЖАТ ЭКЗАМЕН

В Сырдарьинском областном управлении внутренних дел состоялась встреча с курсантами Академии МВД, проходившими практику в регионе.



Сотрудники службы управления экзаменовали курсантов по итогам практики, проинструктировали их по вопросам служебной дисциплины, ношения формы, указали на нормы вежливого обращения с гражданами.

Также в рамках патриотического воспитания будущие

сотрудники посетили музей УВД области. Курсанты побывали на Площади памяти в городе Гулистане, возложили цветы к памятнику Скорбящей матери, отдали дань уважения героям, павшим ради мира и благополучия будущих поколений.

Соб. корр.



Кузатув

## ҲАМКАСБЛАРИ ЭЪЗОЗИДА

ИИВ Миграция ва фуқароликни расмийлаштириш бош бошқармасида подполковник Шоҳрух Мирзаевнинг пенсияга чиқиши муносабати билан кузатув тадбири бўлиб ўтди.



■ Кашкадарьинская область



Первый заместитель начальника Кашкадарьинского областного УВД полковник Бахтиёр Ражапов провел очередную встречу с жителями, закрепленной за ним махалли Араловул города Карши.

Он побеседовал с футболистами команды «Араловул жамоаси», сформированной для участия в турнире на кубок председателя СГБ. На встрече было решено организовать физическую и тактическую подготовку на базе центрального стадиона клуба «Насаф», достойно защищающего честь области в профессиональной футбольной лиге Узбекистана. Занятия будут проводиться по вторникам и пятницам на спортивной арене клуба.

Участники встречи побывали в музее клуба, ознакомились со славной историей, традициями и достижениями команды «Насаф», что положительно повлияло на настрой футболистов-любителей. Каждому игроку «Араловул жамоаси» вручены футболки и мячи с логотипом прославленной команды. В настоящее время идет целенаправленная подготовка к предстоящему турниру.

Соб. корр.



«Олтин қалам – 2024»

## МУКОФОТ МУБОРАК!



Куни кеча пойтахтимиздаги «Ўзбекистон» халқаро анжуманлар саройида Журналистика соҳасидаги «Олтин қалам» XVIII Миллий мукофоти учун халқаро танлов ғолиб ва совриндорларини тантанали тақдирлаш маросими бўлиб ўтди.

Унда Тошкент вилояти ИИБ Ахборот хизмати бошлиғи, капитан Бобур Тўлаганов танловнинг «Жамоат хавфсизлигини таъминлаш ва ҳуқуқий тарғибот йўналишидаги энг яхши мақола учун» кўшимча рафбатлантирувчи номинацияга лойиқ деб топилди.

Ҳамкасбимизни ушбу юксак эътироф билан қутлаб, келгуси фаолиятида улкан зафарлар тилаб қоламиз.



## AFV ETILGANLARGA AMALIY YORDAM

Ba'zan hayotda adashgan kishilarga nisbatan bag'rikenglik qilinsa, ko'mak berilsa, ular to'g'ri yo'iga qaytadi. Shu bois ham mamlakatimizda jazo muddatini o'tayotgan, qilmishiga chin ko'ngildan pushaymon bo'igan va tuzalish yo'liga kigan shaxslarga nisbatan afv qo'llanilishi insoniy bag'rikenglik sanaladi.

Prezidentimizning 2024-yil 8-apreldagi tegishli farmoniga asosan Surxondaryo viloyati hudo-didan ham 30 nafar shaxs afv etildi. Ularning 4 nafari jazodan to'liq ozod etilgan bo'lsa, 18 nafari o'talmay qolgan jazodan shartli ravishda ozod etildi. Yana 2 nafarining o'talmay qolgan jazo muddati axloq tuzatish ishlari jazosiga almashtirildi. Ayni paytda sog'lom hayotga ko'nikishi,

jamiyatda o'z o'rnni topib ketishi uchun ularga yaqindan ko'makla-shilmoqda. Xususan, 2 nafariga fuqarolik pasporti olishda amaliy yordam berilgan bo'lsa, 5 nafari korxona va tashkilotlarga ishga joylashtirildi. Ayniqsa, 21 nafariga ijtimoiy moslashuv markazidan 39 million 270 ming so'm miqdorida gi moddiy yordam berilgani ayni muddao bo'ldi. Shuningdek,

bepul tibbiy ko'rikdan ham o'tkazildi. Bundan tashqari, qayta jinoyat sodir etishining oldini olish va tarbiyaviy ta'sir o'tkazish maqsadida ularga jamoatchi murabbiylar biriktirildi.

— Yaqinlarim bag'riga qaytganidan judayam xursandman, — deydi Z.Abdulahatov. — Oilamni boqish uchun ishga joylashish masalasi o'ylab yurgandim, shukrki, bu muammo hal bo'ldi. Tumanimizdagi «Chiroy Muzrabot qurilish» xususiy korxonasiga ishga joylashdim. Endi halol mehnat qilib, ham oilamga, ham jamiyatga naf keltirish uchun harakat qilaman. Buning uchun bag'rikeng xalqimizdan, davlatimiz rahbaridan, yaqindan yordam berayotgan ichki ishlar organlari xodimlaridan minnatdorman.

Afv etilganlarning yana 12 na-fariga o'zini o'zi band qilish uchun yordam ko'rsatildi. Ular endilikda kichik tadbirkorlik bilan shug'ullanish uchun harakatlarni boshlab yubo-rishgan. Bu yordamlar ularning o'zini har tomonlama tiklab olishiga turki, jamiyatda jinoyatchilik va huquqbu-zarliklarning soni kamayishiga sa-babchi bo'lsa, demak, maqsadga erishilgan bo'ladı.

Feruza RAHMONQULOVA,  
o'z muxbirimiz.

Surxondaryo viloyati.



## OLOTMI, ALLOTMI YO ARLOT?

Buxoro viloyatining Olot tumani 1943-yil 14-fevralda tashkil etilgan. 1960-yil Qorako'l tumaniga qo'shilgan. 1973-yil 26-dekabrda qayta tashkil etilgan. 1983-yildan yana Qorako'l tumanı tarkibiga kigan. 1989-yildan Olot tumani alohida tuman maqomiga ega bo'ldi. Aholisi, asosan o'zbeklardan iborat, shuningdek, turkman, qozoq, rus, tatar va boshqa millat vakillari ham yashaydi...

Bular barchamizga ayon bo'lgan ma'lumotlar. Biroq tuman nomining qanday ma'no anglatishi hamon noayon bo'lib qolmoqda. Bundan yarim asr avval bu haqda yoshi ulug'lardan so'raganimizda, tumanning nomini «ol» va «ot» so'zlari bilan bog'lashgandi. Ya'niki, qadimda bir qavm (qabila)ni Buxoro aholisidan «yulib olib», 70 chaqirim yiroqlikdagi hududga «olib otishgan», shundan so'ng Olot qishlog'i paydo bo'lgan. Qachon yaralganidan qat'i nazar, hammani va hamma narsani sovetlar bilan bog'lay-diganlar toifasi o'ylab topgan etnonim esa yanada kulgilidir. Ularning nazidda, tuman otliq qizil askarlar kelganidan keyin paydo bo'lgan. Shu bois uning nomi «qizil» («ol») va «ot» so'zlaridan yasalgan.

Albatta, bu kabi g'ayritabiyy holatlar tarixiy ildizlarimizni, o'zanini to'ldirib oqayotgan daryolarimizning qaysi chashma va buloqlardan suv ichishi ni bilmaganligimiz oqibatidir. Tarixni yaxshi bilmasak ham, hech bo'lmaganda, shu yerda yashovchi aholi shevasiga e'tibor qilganimizda, tuman nomining kelib chiqishini bilib olsa bo'lardi.

Biz oddiy kuzatishlarimiz va ayrim manbalarga tayangan holda, bu masalaga aniqlik kiritishga harakat qilamiz. Masalan, tuman nomini Olot shahrida istiqomat qiluvchilar «Allot» deb aytishadi. Bu esa o'z-o'zidan tuman nomi Olot ham emas, balki shu yerdan yashovchi aholining arlot urug'iga mansubligidan kelib chiqqan etnonim, degan xu-losaga kelishga tutki bo'ladi.

Ya'ni, allot arlot urug'ining dialektal talaffuzidir. Xo'sh, unda arlotlar kim? Ular qanday qilib bu manzil-makonlarga kelib qolgan? Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, arlotlar o'zbek xalqi tarkibiga kigan turkiy elatlarning biri bo'lib, XIII asrning birinchi choragidan boshlab, mo'g'ullar bosqini davrida Movarounnahr va Xurosonda o'troqlashgan. «Vaqfiya»da keltirilishicha, 92 bovli o'zbek urug'lari dan biri bo'lgan arlot beklari Temuriylar sulolasi davrida davlat boshqaruvi va harbiy tizimda barloslardan keyingi eng nufuzli amaldorlar dan hisoblangan. Xususan, 1370-yil bahorida Balxda Amir Temuring hokimiyatga kelishini Termiz sayyidlari, din peshvosi Sayyid Baraka bilan

birgalikda qo'llab-quvvatlagan Chig'atoj ulusining taniqli amirlari qatorida Mu'ayyid Arlot ham bo'lgan. Bundan tashqari, siyosiy mavqega ega bo'lgan arlotlar amirlik va lashkarboshilik maqomiga ko'tarilgan.

Navoiyning ta'kidlashicha, Husayn Boyqaro Xuroson taxtini egallagach, mamlakat-dagi hokimiyat boshqaruvida faol qatnashgan arlotiylarga munosib vazifa tayin etilgan. Shuningdek, shoirning lirik asarlarida arlotlar go'zal mahbuba timsoli va ilohiy ishq mazhari sifatida qo'llanilgan:

*Sanamlar husnidin maqsud  
yor o'lmish Navoiyga,  
Agar barlos, agar tarxon,  
agar arlot, agar sulduz.*

Boshqa bir manbada yozilishicha, Buxoro amirlari

garchi mang'it urug'ining to'q-mang'it urug'iga mansub bo'lishsa ham, hukmdorni taxtga o'tqizish paytida oq kigizga o'tirg'izib, «xon ko'tarish» marosimini o'tkazish chog'ida 4 ta o'zbek urug'i – ming, allot (arlot), bahrin va batosh urug'ining nufuzli vakillari kigizning chetidan ushlab turish vakolatiga ega bo'lishgan. Amir Shohmurod hukmronligi davrida esa arlotlar qo'shining so'l qanotini tashkil etgan.

Ta'kidlash joizki, urug' nomi bilan atalgan qishloqlar respublikamizning Buxoro, Tomdi, Xatirchi, Ishtixon, Qo'shrabot kabi ko'plab tumanlarda ham bor.

Temir QURBONOV,  
filologiya fanlari nomzodi.



XIZMLARDA

## IKKI HAMKASB BIR BUTUN

**Safdorlar Anorvay Turayev va Muslimbek Abdullayev Toshkent shahar IIBB YHXB YPX brigadasi maxsus batalyoni alohida maxsus otryadida faoliyat yuritishadi. Ular asosan «Yangi O'zbekiston» bog'i atrofi-dagi Maxtumquli va Cho'Ipon ko'chalari bo'ylab xizmat olib boradi.**

Ikki hamkasb zimmalari-  
ga yuklatilgan vazifalarni  
ado etish niyatida xizmatga  
otlanar ekan, yo'l harakati  
qoidalariga bepisand qa-  
rayotgan haydovchi-yu  
piyodalar harakatiga  
huquqiy baho beradi.

ketmaydi deb kim kafo-  
lat bera oladi?! Agarda  
biz ushbu qoidabuzar  
haydovchiga ma'muriy  
bayonnomma rasmiylashtir-  
masak, u keyingi safar  
yana shu qilmishini davom  
ettiraveradi va oqibatda

**“**XUSUSAN, SAFDOR A.TURAYEV O'TGAN YIL MO-  
BAYNIDA JAMI 1307 TA MA'MURIY BAYONNOMA  
RASMİYLASHTIRGAN. ULAR ORASIDA QO'POL QOIDA-  
BUZARLIKLAR HAM BO'LIP, SHUNDAN 1 TASI MAST  
HOLATDA AVTOLUOV BOSHQARISH, 7 TASI TELE-  
FONDAN FOYDALANISH, 388 TASI SVETOFORNING  
TAQIQLOVCHI CHIROG'DA HARAKATLANISH, 325 TASI  
YO'L CHIZIQLARIGA RIOYA ETMASLIK KABI HUQUQBU-  
ZARLIKLARDIR.

— Qo'pol qoidabu-  
zarliklarning ko'prog'i  
svetoferning taqiqlovchi  
chirog'ida harakatlanish-  
ga to'g'ri kelyapti. Endi  
tasavvur qiling, mana shu  
holatda qoidani men-  
simasdan harakatlanib  
kelayotgan haydovchi  
unga yondosh ko'cha-  
dan yashilda o'tayotgan  
avtoulov bilan to'qnashib

ko'ngilsiz hodisalar yuz  
beraveradi, — deydi Safdor  
M.Abdullayev.  
Uning otasi serjant  
Abdukarim Bozorov ham  
ichki ishlar organi xodi-  
mi. U Toshkent viloyati  
IIBB YHXB YPX brig-  
dasi 4-YPX otryadi YPX  
inspektori. Muslimbek ilk  
saboplarni otasidan olib,  
uning izidan ketib kam

bo'lmayapti. Qolaver-  
sa, hamkasbi A.Turayev  
bilan hamkorlikda faoliyat  
yuritib, yo'llarda harakat  
xavfsizligini ta'minlashda  
o'z hissasini qo'shamoqda.  
U oilalik, ikki nafar far-  
zandning otasi.

Safdor A.Turayev  
turmush o'rtog'i Gul-  
ruhxon bilan uch nafar  
o'g'ilni tarbiyalab

voyaga yetkazmoqda.  
Ajabmas, bu o'g'lonlar  
orasidan ota kasbini  
tanlab, el yurt tinch-  
ligini ta'minlashga o'z  
hissasini qo'shadigan  
osoyishtalik posboni  
chiqib qolsa.

Ikki hamkasb bir butun  
bo'lib xizmat olib borishi  
natijasida, ko'plab qoida-  
buzarliklar aniqlanib,

vaqtida chora ko'rilmoxda.  
Bu esa yo'llarda harakat  
xavfsizligi ta'minlanishi,  
ko'ngilsiz hodisalar sodir  
bo'lishining oldi olinishi-  
da muhim ahamiyat kasb  
etadi.

**Sarvar SOBIROV,  
o'z muxbirimiz.  
Toshkent shahri.**



*Suratda: safdorlar Anorvay Turayev va Muslimbek Abdullayev.*

MASHHURLAR HAYOTIDAN

## O'LIMGA TIK QARAGAN ADIB

**Nobel mukofoti sohibi, taniqli  
adib Ernest Xemingueyning  
(1899—1961) ijodini adabiyot  
ixlosmandlari yaxshi bilishadi.  
Lekin uning hayoti borasida  
bunday deyish mushkul. Shu  
boisdan quyidagi ma'lumotlar  
ko'pchilikda qiziqish uyg'otadi  
deb o'yaymiz.**

Bo'lajak buyuk yozuvchiga  
bolaligida onasi ko'pincha qiz bo-  
lalarning kiyimini kiyg'azib qo'yar-  
kan. Aytishlaricha (agar to'g'ri

bo'lsa), uning sochini olti yoshga  
to'lganda ilk bor olishgan ekan.

Ernestga to'rt yoshligidayoq ota-  
si ov qilishni, baliq ovlashni o'rgat-  
gan. Musiqaga qobiliyati yo'qligiga  
qaramay, bolaligida uni violonchel  
chalishga majburlashgan.

Xemingue bobosini juda yaxshi  
ko'rardi. Bobosi unga 12 yoshga  
to'lganida ov miltig'i sovg'a qilgan.  
Ernest o'smirligidayoq ijod qilishni  
boshtagan. Uning maktab gaze-  
tasida chop etilgan maqolalarida

ham iste'dod uchqunlari ko'rinih  
turardi.


Adib hayotida ko'p bora o'lim  
bilan ro'para kelgan. U o'n mar-  
tadan ziyod yo'l-transport hodisasi-  
ga uchragan, ovda ikki marta  
jarohatlangan, urushda harbiy  
muxbir sifatida qatnashgan kezlar  
yaralanib, tanasida ko'plab oskol-  
kalar qolgan. 1961-yilda esa otasi  
singari o'z joniga qasd qilgan.

Ulug' yozuvchi dastxat berishni  
yoqtirmasdi. Lekin ba'zi muxlislari  
uning dastxatini olishga muvaffaq  
bo'lishgan. Keyinroq bu yozuvlarni  
kimoshdi savdolarida baland nar-  
larda sotishgan.

Ernest Xemingue nihoyatda  
dovyurak inson bo'lgan. Masa-  
lan, u korridoda ishtirot etgan.  
Sherlar qamalgan qafasga kirgan.  
Bir gal hatto boks bo'yicha Amerika  
championiga qarshi ringga  
chiqqan.

1978-yilda kashf etilgan kichik  
sayyoraga ulug' adibning nomi  
berilgan.

**Bobomurod TOSHEV  
tayyorladi.**



IKKINCHI ISTE'DOD

## SOG'INCH

Tush ko'rdim, tushimga onam kiribdi,  
Bir quchoq qizg'aldoq quchib turibdi.  
Axir, Siz dunyodan o'tgan edingiz,  
Qaytmas manzillarga yetgan edingiz.

Volidam yonimda biroz turdilar,  
So'ng qizg'aldoqlarni menga berdilar.  
Men ularni olib, to'yib hidladim,  
Onamning hidlarin yana esladim.

Cho'chib uyg'onibman, qarasam – tushim,  
Uni topmay uchdi boshimdan hushim.  
Qani, voldamni bir bor ko'rsaydim,  
Qadoq qo'llarini bir bor o'psaydim.

Qanot qoqib qabriston tomon uchdim,  
Sog'inib, onamning qabrini quchdim.  
Qabr uzra qizg'aldoq yal-yal yonardi,  
Ulardan onamning hidi taraldi...

**Javohir IBODULLAYEV,  
safdor.**

*Toshkent shahri.*

## В академических лицеях МВД

### ■ Ферганская область

**В Академии МВД состоялся смотр-конкурс книголюбов «Знаток наследия предков» среди учащихся академических лицеев и «Темурбеклар мактаби» города Нукуса.**



Первое место в нем занял учащийся второго курса Ферганского академического лицея МВД Мухаммадфозил Исмоилов, набравший 95 баллов. Победитель и его наставники награждены дипломами и ценностями Министерства внутренних дел.

– Смотр-конкурс призван обогатить духовный мир участников, расширить их кругозор, раскрыть интеллектуальные способности, пропагандировать чтение книг, привить ораторские навыки, – говорит директор академического лицея подполковник Жахонгир Казимов. – Подготовиться к конкурсу Мухаммадфозилу помогали начальник кафедры языков Сайёрахон Курбонова и преподаватель родного языка и литературы Гуллола Хайдарова. Он оправдал наши надежды, подтвердив высокий потенциал лицея.

– В 2020 году наш подопечный занял почетное первое место



в республиканском конкурсе «Юный книголюб», учрежденном Президентом страны, – говорит Гуллола Хайдарова. – Приз за победу – машину, он подарил маме, Мукаммалхон Мукимжоновой, которая работает учительницей.

– На выбор будущей профессии повлиял брат Камронбек, который также учился в этом лице, – рассказывает Мухаммадфозил. – Он

лестно отзывался о преподавателях, условиях, созданных для всестороннего роста и развития. Брат сейчас учится в Академии МВД.

Лицейст также мечтает поступить в Академию МВД, стать хорошим специалистом, служить во благо страны и народа.

**Абдувосит СИДИКОВ,  
соб. корр.**



### ■ Хорезмская область

**В целях практического закрепления теоретических знаний для учащихся первого курса Хорезмского академического лицея МВД Республики Узбекистан организовано посещение Управления внутренних дел области.**



Лицейсты ознакомились с деятельностью группы по работе с обращениями Организационного управления УВД. Им рассказали об изменениях и дополнениях, внесенных в Закон Республики Узбекистан «Об обращениях физических и юридических лиц», требованиях соответствующего приказа МВД, о порядке рассмотрения обращений граждан. Учащиеся получили представление о работе центра мониторинга дежурной части УВД.

– Как говорится, лучше один раз увидеть, чем сто раз услышать. Нам предоставили возможность узнать специфику работы с документами, ознакомиться с процессом принятия решений, – делится учащийся первого курса Анвар Жумамуратов.

В ходе занятий ответственные сотрудники дали исчерпывающие ответы на интересующие лицейцев вопросы. Словом, подрастающая смена ненадолго окунулась в реальные будни будущей профессии.

**Шокир ЮСУПОВ,  
подполковник в отставке.**



# BIZ QADRIGA YETMAYOTGAN NE'MAT

Yaqinda oynai jahonda bir videorolik ko'rdim. Unda er-xotin har xil qimmatbaho buyumlarni suv tekinga olganini maqtanib, hammaga ko'z-ko'z qildi. Videorolikda shu so'zga alohida urg'u berilib, suvning shafqatsizlarcha isrof qilinayotgani tasvirlangandi. Pirovardida suv tanqisligi yuzaga kelib, jannatmonand tasvir rutubat ichra qoldi, er-xotinlarning avlodlari esa bu fofia jabrdiydalariga aylandi...



Videorolikni ko'rarkanman, «suv tekin» degan so'z mening yuragimga o'qdek qadalardi. To'g'ri, bu ibora bizga ota-bobomizdan meros. Ammo bu so'zlar dastlab aytiganda, ehtimol, vaziyat umuman boshqacha bo'lgandir. Ya'ni, suv mo'l-ko'l bo'lib, uning tuganmasligi ham ayni haqiqatdekk... Shunday bo'lsa-da, u paytlarda insoniyatning, ayniqsa, bizning millatning suvga nisbatan e'tibori, e'zozi ham boshqacha bo'lgan. Buni biringina o'sha - ham-mamizga yod bo'lib ketgan «suvga hatto tupurish ham gunoh bo'ladi» degan oddiygina ogohlantirishdan ham bilsa bo'ladi. Biroq bugungi zamon avlodining - nafaqat biz, balki butun dunyo ahlining - bu benazir, bebafo ne'matga bo'lgan munosabati mutlaqo teskarisiga aylangan. Aynan ana shu xatoyimiz bizni tobora fofija yaqinlashtirmoqda.

Bundan besh yilcha ilgari internetda suv tanqisligi borasida bir maqola o'qigandim. Unda jumladan, shunday ma'lumotlar bor edi: «**Insoniyat jiddiy sinovlar arafasida - iqlim o'zgarishlari va aholi sonining o'sib borishi suv tanqisligini keltirib chiqaradi.**

...Yerdagi jamiki suvning 97,5 foizi - sho'r, ichishga yaroqsiz, 1,75 foizi - qutblarda va muzliklarda. Ixtiyorimizdag 0,75 foiz obihayot bo'lsa, asosan yer ostida joylashgan. U ham qurib boryapti...

Ha, bu 2019-yilgi ma'lumot. Kishi etini junjiktirib yuboradi, to'g'rimi? Ammo undan keyingi yillarda qayd etilgan quyidagi ma'lumotlar esa o'qigan odamni dahshatga solishi turgan gap: «2050-yilga kelib qurg'oqchilik dunyo aholisining to'rtadan uch qismidan ko'prog'iga ta'sir qilishi mumkin», - deyiladi BMT Jahan cho'llanish va qurg'oqchilikka qarshi kurash tashkiloti bayonotida.

«**Tadqiqotlarga ko'ra, yaqin 20 yil ichida O'zbekistonda suvga bo'lgan talab sezilarli oshadi va mavjud suv resurslari keskin kamayadi, bu esa joriy suv tanqisligini besh barobargacha oshiradi. Bu davrga borib O'zbekiston suv tanqisligi bo'yicha qizil hududlar qatoriga kiradi.**»

«**Jahon banki ekspertlariga ko'ra, 2050-yilga borib Sirdaryo havzasida suv resurslari 5 foizgacha, Amudaryo havzasida 15 foizgacha kamayishi kutilmoqda. 2050-yilda Markaziy Osiyoda chuchuk suv taqchilligi yalpi ichki mahsulotning**

**11 foizga pasayishiga olib kelishi mumkin».**

Bu ma'lumotlar o'qiganlarimdan bir chimdim, xolos. Ayni paytda butun dunyo ahli e'tiborida bo'lgan, tashvishga solayotgan aynan shu mavzu haqida soatlab gapirish mumkin. Biroq o'zini anglagan insonga ana shu bir chimdimi ham kifoya qilib, uni chuqur mushohadaga undaydi...

Masalaning mohiyatiga chuqurroq kirsak, chindan ham achinarli, juda achinarli holat. Nahotki, ajdodlarimiz ulug'lab kelgan bu ne'mat biz sababli shu ko'yga tushayotgan bo'lsa?! Lekin kurashuvchanlik - odamzodga xos xususiyat. Biz ham bu ne'matni bugundan, yo'q shu daqiqadan boshlab, tejab-tergab sarflasak, kutilayotgan ofatning balki oldini olishimiz mumkindir? Axir yaxshi niyat - yarim davlat, deydilar. Qolaversa, tomchidan ko'l hosil bo'lishini, oldimizda oqayotgan suvning qadri naqadar tengsiz ekanligini aslo unutmashligimiz kerak. Bu avlodlarimiz oldidagi farzimiz, burchimiz. Negaki, ularning ham xuddi biz kabi bog'-u bo'stonli, sharqiroq daryo va soyli Vatanda farovon, ma'mur yashamoqqa haqqi bor.

**Dilfuza HAMDOVA,**  
jurnalist.

**Mirzoqul AHADOV,**  
o'z muxbirimiz.

Buxoro viloyati.



Husan SODIQOV chizgan rasm.



 SOHA FIDOVILARI

## KATTA MAQSADLAR SARI

Farg'ona viloyati Uchko'prik tumani IIB probatsiya guruhi katta inspektori, kapitan G'iyo'siddin Yuldashev mazkur tumandagi «Mamachol» qishlog'ida tug'ilib kamolga yetgan.



Bolaligidan sportga mehr qo'yganligi sababli, bolalar va o'smirlar sport maktabida belbog'li kurash sirlarini puxta o'rjanib, ko'plab nu-

fuzli musobaqalarda ishtirok etdi. Jumladan, 2004-yilda Chirchiq shahrida bo'lib o'tgan O'zbekiston chempionatida 61 kilogramm vazn

toifasida ishtirok etib, faxrli 1-o'rinni qo'lga kiritgan va mamlakat championi degan sharafli nomga sazovor bo'ldi.

2006–2007-yillarda harbiy xizmatda bo'lib qaytgan qahramonimiz O'zbekiston davlat jahon tillari universitetiga o'qishga kirdi.

– O'qishni tamomlagach, bir necha yil o'zim tahsil olgan oliygohda ishladim, – deydi u. – Sinovlardan muvaffaqiyatlari o'tib, 2016-yilda ichki ishlar organlari ga xizmatga qabul qilindim.

Dastlab profilaktika inspektori, katta inspektori vazifalarida ishlab, muayyan tajriba to'plagach, rahbariyat probatsiya guruhi katta inspektori vazifasini unga ishonib topshirdi.

– Probatsiya bu tizimdagি mas'uliyati og'ir yo'naliшlardan birdir, – deydi kapitan G'iyo'siddin Yuldashev.

– Og'irligi shundaki, bizning xodimlar oddiy fuqarolar bilan emas, jinoyat sodir etib, ozodlikdan mahrum etish bilan bog'liq bo'lmagan jazoga hukm etilganlar va jazoni ijro etish muassasalaridan qaytgan shaxslar bilan shug'ullanishadi. Shu boisdan, har bir mah-

kum va nazoratga olinganlar bilan yakka tartibda ishlashga harakat qilamiz. Maqsadimiz bir marta adashgan shaxslar qayta bu yo'iga kirishi ga yo'l qo'ymaslik. Ularga qo'limizdan kelgancha to'g'ri yo'l ko'rsatishga, yordam berishga va qayta tarbiyalashga intilamiz.

Ingliz tilini yaxshi biladigan, sport bilan muntazam shug'ullanib borayotgan lavhamiz qahramoni o'z oldiga katta maqsadlarni qo'ygan. Shu sababli hozirda IIV Akademiyasida jinoyatni fosh etish va oldini olish yo'naliшida sirtdan tahsil olib, bilimlarini yanada mustahkamlayapti.

Onasi Habibaxon Yuldashevning duosini olib, turmush o'rtoq'i bilan ahillikda 2 nafar farzand o'stirayotgan kapitan G'iyo'siddin Yuldashev shu sohaning yetuk bilimdoniga aylanib, xalqimizga munosib xizmat qilishni olyi maqsad deb biladi.

**Abduvosit SIDIQOV,**  
**o'z muxbirimiz.**  
Farg'ona viloyati.

## PARIJGA YO'LLANMA NAQD



Qozog'iston poytaxti Ostona shahrida dzyudo bo'yicha «Katta dubulg'a» turkumiga kiruvchi turnir o'z yakuniga yetdi. Mukofot jam'armasi 154 ming yevroga teng bo'lgan ushbu musobaqada dunyoning 87 ta davlatidan kelgan 455 nafar sportchi orasida 12 nafar hamyurtimizning ham borligi bizni juda quontirdi.

Eng muhim, Toshkent viloyati IIBB 1-mintaqaviy hududi Tezkor vazifalarni bajaruvchi safarbarlik otryadi 1-ishg'ol qilish guruhi kichik mutaxassis-haydovchisi, safdar Sharofiddin Boltaboyev 81 kg vazn toifasida germaniyalik



Timo Kaveliusni finalda mag'lub etib, musobaqaning oltin medali bilan taqdirlandi hamda joriy yil Parij shahrida bo'lib o'tadigan yozgi olimpiada o'yinlari yo'llanmasini qo'lga kiritdi.

U finalga qadar germaniyalik Dominik Rassel, sloveniyalik Gerkovich,

rossiyalik olimpiada championi Hasan Xalmurzayev va yaponiyalik Satoro Fujivaradan ustun ekanligini yaqqol namoyish etdi.

– Men erishgan bu g'alaba butun xalqimizning yutug'i, – deydi safdar Sh.Boltaboyev. – Prezidentimiz, vazirlilik va viloyat IIBB rahbariyatiga

chuqur minnatdorlik bildiraman. Boisi, muvaffaqiyatga erishishimda ular tomonidan yaratib berilgan sharoit va imkoniyatlarning o'rni katta bo'ldi.

**Mixli SAFAROV,**  
**o'z muxbirimiz.**

 JINOYAT HAQIQATI VA ADOLATI

## IMTIYOZLI UY MASHMASHASI

**Muqaddam sudlangan, ammo bundan o'ziga ijobji xulosa chiqarmagan Zebo (ism-shariflar o'zgartirildi) qing'ir ishlarnini yana davom ettirib, Shokir bilan til biriktirdi. G'arazli maqsadlarini amalga oshirish uchun uy sotib olish niyatida yurgan soddarroq insonlarni obdan o'rgandi. Shu asnoda ular Olmazor tumanida qurilayotgan ko'p qavatli uylardan imtiyozli shartlar asosida xonodon olish niyatida yurgan Zayniddin va Zokirning yo'lida paydo bo'ldi.**

«Hojatbaror» belgilangan manzil – Shayxontohur tumanidagi kafelarning birida Zayniddin bilan uchrashdi. Uning ishonchiga kirib, o'zlarini hokimiyatda ishlashini aytib, ko'p qavatli uylardan ikkita xonodon olib berishni va'da qilib, Zayniddindan 27000 AQSH dollarini olishdi.

«Ishtahasi» ochilgan Zebo va Shokir yana reja tuzib, ikkinchi xaridorni ham qarmoqqa ilintirishga kirishdi. Bu galgi «o'la» – Zokir ham yolg'on va'dalarga laqqa tushib, 12000 AQSH dollarni qurtday sanab berdi.

Qiziq, yelib-yugurib, tejab-tergab topilgan mablag'ni qanday qilib firibgarlar qo'liga topshirish mumkin?! Bu holat huquqiy bilimsizlik yoki o'ta soddalik natijasimi? Shu kabi savollar xayolga bot-bot keleveradi.

Darvoqe, firibgarlar jabrlanuvchilarni tuzog'iga ilintirishda o'rtadagi tanish-bilishlardan ustomonlik bilan foydalanishgan. Tanishlar «xo'rak» vazifasini o'tagan. Ular, nathonki, ko'ra-bila turib, bu nayrang ekanini aytishmagan. Yoki ular ham firibgarlarga ishonishganmi? Yoxud ular

ham o'rtadagi foydaga sherik bo'lishganmi?..

Nihoyat, uy olish cho'zilib ketganidan, ikki firibgarning har kungi «ertaklari»ni eshitishdan charchab, oxiri yo'q yolg'onlardan jabrlanuvchilarning xavotiri osha boshlaydi. Bu vaqtida og'zi kuyganlarning «Sen men ga ro'para qilgansan» kabi diydiyolaridan «xo'rak»lar ham tipirchilib qolishadi. Sarsen-sargardon jabrlanuvchilarning bor umidi «102»da edi...

«Men investorlar orqali kam ta'minlanganlarga uy olib berish bilan shug'ullanib yuribman, uyga muhtoj tanishlar bo'lsa, topib bering» degan kundan boshlanganini aytadi. Shundan so'ng Shokir unga Zayniddinni ro'baro' qiladi. Xullas, oldi-berdi jarayonida tilxatlar yozilganiyu va pullardan manfaat ko'rmanligini vaj qilgan Shokir go'yoki oppoq. Ikkinchisi holat bo'yicha ham u Zeboning investorlar bilan uy-joy masalasida ishlayotganiga ishonganligi

tanishini, oldi-berdida hech qanday manfaat ko'rmanagini aytishi taajjublanarli hol. Zebo ham go'yoki oppoq. Unda olingen pullar kimda?

Vaholanki, jinoyat tafsilotlari tergov jarayonida kunday ravshan bo'ldi. Jabrlanuvchi va guvohlarning ko'sratmalari, tilxatlar, o'tkazilgan yuzlash-tirish bayonnomalari hamda audioyozuvlari barchasiga barham berdi. Sud esa ikki nayrangbozning keltirgan vajlarini javobgarlikdan qutulish uchun o'ylab topilgan bahona



Cho'kayotgan odam hasga ham yopisharkan. Buni qarangki, sudda Shokir aybiga iqror emasligini bildirib, Zebo bilan avvaldan tanish ekanini, hammasi u qo'ng'iroq qilib:

uchun opasining turmush o'rtog'i Zokirni tavsiya qilgанини keltiradi. Uy-joyga muhtoj Zokir rozilik bildiradi. Buni qarangki, pul yana Zeboga «tegadi».

Sudda Zebo ham shergi kabi aybiga iqror emasligini bildiradi. U Shokirni bir mahallada yashaganligi tufayli

deb baholadi. Shokir Abzalov va Zebo Baxtiyorovaga Jinoyat kodeksining tegishli moddalari bilan ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlandi.

**Jamshid ALIMARDONOV,  
podpolkovnik.  
Keldiyor TO'LIEV,  
jurnalist.**

Toshkent shahri.

 TERGOV AMALIYOTIDAN

## QIMMATGA TUSHGAN MUSHT

J. Jumaqul (ismlar o'zgartirildi) hali tong otmasdanoq, «Spark» rusumli avtomashinasida otasi bilan molbozorga yo'l olishdi. Katta yo'l yoqasiga chiqqach, beton to'siqqa yaqin qismidan harakatlanishni davom ettirdi. Shu payt orqada kelayotgan «Epika» rusumli avtomashina undan yo'l so'rab, uzoqni yorituvchi chiroqlarni yoqib o'chirdi. Biroq o'ng tomonida ham boshqa avtotransport vositalari harakatlanib kelayotganligi sababli «Epika»ga yo'l berolmadidi. Bu esa haydovchini «sher»ga aylantirdi. U «Spark»ni quvib o'tib, Jumaqulga qo'li bilan imo-ishoralar qilib, avtomashinani to'xtatishni so'radi. Noiloj u chetga chiqib to'xtadi.

«Epika» haydovchisi mashinadan tusha solib o'shqira ketdi. So'ng haqoratlashga tushdi. Jumaqulning

bosiqlik bilan muomola qilishiga javoban haydovchi unga tashlandi. Jumaqulning ham jahli chiqib, uning yuziga musht tushirdi. Keyin yana ketma-ket ikki marotaba urdi.

Shu tariqa, yo'q joydan chiqqan mashmasha tufayli ularning biri shifoxonaga, yana biri tuman IIBga keltirildi. Tergov jarayonida Jumaqul aybiga iqrorlik bildirdi. Ammo jinoyat hech qachon jazosiz qolmaydi. Sud hukmi bilan J. Jumaqul qilmishiga yarasha jazosini oldi. Ya'ni, ish haqining 15 foizini davlat daromadiga ushlab qolish sharti bilan ikki yil axloq tuzatish ishlari jazosi berildi.

**Behzod FAYZULLOEV,  
Vobkent tumani IIB huzuridagi  
tergov guruhi katta tergovchisi,  
mayor.**





## ТАБИАТНИНГ О'ЗИ ТАВІВ

Iste'mol qilayotgan barcha meva-sabzavotlarimiz inson organizmi, ayniqsa, salomatlik uchun foydali bo'lgan vitaminlarga boy. Aslida tabiatning o'zi tabib. Bahor kelib, pishiqchilik, koni foyda meva-sabzavotlar mavsumi boshlandi. Quyidagi tavsiyalar sizga asqatadi deb o'yaymiz.

### QULUPNAY KO'RISH QOBILIYATINI OSHIRADI


Qulupnay nafaqat xotirani mustahkamlaydi, balki ko'rish qobiliyatini ham oshiradi. Uni har kuni iste'mol qilish ko'z pardasi kasalliklari, katarakta, ko'zlarning quruqlashishi, progressiv ko'rlik va boshqa xastaliklarning rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Rezavorlarning noyob biokimyoiy tarkibi ko'rishning buzilishiga olib keladigan ko'plab kasalliklarning oldini oladi. Shuningdek, mayjud kasalliklardan ham tezroq xalos bo'lishga yordam beradi.



### G'O'RASI HAM KONI FOYDA

Oramizda mevada danak qattiqlashmasdan turib, o'rik g'o'rasini (uni dovuchcha ham deyishadi) paqqos tushiradiganlar ham kam emas.

G'o'ra nafaqat ishtahani ochadi, balki S vitaminiga ham boy. U kam kislotalilikdan aziyat chekadiganlarning oshqozon faoliyatini yaxshilaydi. Ammo kislotaliligi yuqori bo'lgan kishilarga g'o'ra yeish tasviya etilmaydi. Temir moddasiga boyligi tufayli gemoglobin miqdori past bo'lgan kishilar uchun dovuchcha ayni muddao. Shuningdek, tarkibidagi salisil kislotosi revmatizmga ham davo bo'ladi. Qattiq bo'lishga ulgurmagan danagi tarkibida saratonga qarshi tabiiy vosita bo'lgan amigdalini mavjud. Qabziyatdan qiynalayotganlar uchun ham g'o'ra nihoyatda foydali.



### HAR DARDGA DAVO

Tut mevasi immun tizimni kuchaytirib, organizmning yuqumli kasalliklarga qarshi himoya tizimini mustahkamlaydi, teriga barvaqt ajin tushishidan saqlaydi, ko'rish qobiliyatini oshirib, ko'z to'rpardasi zararlanishining oldini oladi.

Tut daraxtining bargi va po'stlog'i ham turli biologik faol moddalarga boy. Bargi tarkibida flavonoidlar, vitaminlar, karotin, efir moyi, organik kislotalalar, po'stlog'ida esa bo'yoqli va oshlovchi moddalar, turli kislotalalar mavjudligi aniqlangan.

Xalq tabobatida tut qadimdan qator kasalliklarni davolashda qo'llanilib kelinadi. Tut shirasi qonni tozalash, ko'paytirish maqsadida ham keng



qo'llangan. Bargining qaynatmasi esa angina va boshqa shamollash kasalliklarida isitmani tushiruvchi, chanqoqni qoldiruvchi vosita sifatida qo'llanilgan.

Agar tut, tok va qora anjirning barglarini yomg'ir suvida qaynatib ishlatsa, sochni qoraytiradi. Oq tut bargi tomoq og'rig'iga, yangi uzilgan barg shirasi tish og'rig'iga, tut mevasi va uning shirasi og'iz hamda tomoqdagi shishlarga davo bo'ladi. Tuzlab quritilgan tut mevasi ichburug' kasalligini davolaydi. Buyrak, yurak-qon tomir kasalliklarini davolashda esa tut mevasi tanani ortiqcha suyuqlikdan tozalovchi, peshob haydovchi vosita hisoblanadi.

**Gulnoza TURG'UNBOYEVA tayyorladi.**

## ПРИВЫЧКИ ДЛЯ УКРЕПЛЕНИЯ ПАМЯТИ



**1. Заниматься спортом.** Есть связь между физическим самочувствием и состоянием мозга: чем лучше у человека первое, тем активнее работает второе. И в целом, по словам специалистов, вероятность дольше прожить не зная проблем с памятью именно у физически активных людей.

**2. Получать новые знания.** Физическая активность – хорошо, но куда без умственной. Держать мозг в тонусе – тоже отличный вклад в будущее. Варианты разные: прогуляйтесь в местах, где не были раньше; начните учить новый язык; попробуйте чистить зубы другой рукой; читайте стихи; разгадывайте кроссворды; собирайте пазлы.

**3. Правильно питаться.** Это важно так же, как и первые два пункта. Сбалансированные блюда с большим количеством зелени, фруктов и исключение полуфабрикатов с переработанными продуктами – залог здоровья тела и ума.

Стоит добавить в рацион побольше овощей и фруктов зеленого цвета: яблоки, брокколи, цукини, болгарский перец.



### СНИЖАЕТ ХОЛЕСТЕРИН, ПОМОГАЕТ ПИЩЕВАРЕНИЮ

Стручковая фасоль богата клетчаткой, которая способствует снижению уровня «плохого» холестерина в крови. Она предотвращает появление бляшек в сосудах. Магний, калий и другие минералы в составе фасоли снижают давление, регулируют сердечный ритм.

Клетчатка в фасоли поддерживает здоровое пищеварение, улучшает работу кишечника и нормализует стул. Стручковая фасоль помогает контролировать уровень сахара в крови и снижает чувство голода. Она также богата железом, которое помогает производить красные кровяные клетки и борется с анемией.

Стручковая фасоль легко готовится – варится 5–7 минут. Ее можно добавлять в первые и вторые блюда, в закуски и салаты.



## ■ Ташкентская область «ЯШИЛ МАКОН» В ДЕЙСТВИИ



Деревья и кустарники являются естественными генераторами чистого воздуха. Благодаря фотосинтезу они поглощают углекислый газ и выделяют кислород. Биоразнообразие также способствует сохранению фауны. В условиях глобального изменения климата зеленый покров выступает эффективным средством борьбы с опустыниванием.

В добром деле свой вклад вносят и сотрудники Управления внутренних дел города Чирчика. В махаллях ими высажены тысячи саженцев плодовых и декоративных деревьев, кустарников.

### Dialog с народом

#### ■ Сырдарьинская область

**Результативным стал выездной прием граждан, организованный руководством отдела внутренних дел города Ширин. Насущные проблемы граждан были рассмотрены с участием представителей предприятий и организаций города.**



В ходе приема поступили обращения, касающиеся деятельности коммунальных служб, прозвучали просьбы об оказании материальной помощи, содействии трудуоустройству, помогли с получением субсидий и др. Ряд обращений разрешены на месте, по проблемам, волнующим граждан, даны юридические консультации.

## MUNAJJIMLAR BASHORATI (20-maydan 26-maygacha)



**Qo'y.** Sizni hodisalarga boy hafta kutmoqda. Dushanba kuni foydali narsaga pul sarflash haqida o'ylab ko'ring, ehtimol, bu bilan moliyaviy holatningizni yaxshilab olasiz. Hafta boshida ish joyingizda tekshiruv tashkil etilishi mumkin. Bundan aslo xavotirga tushib, qayg'urmang. Aksincha, barcha sa'y-harakatlaringiz munosib baholanadi.



**Buzoq.** Kelayotgan hafta moliyaviy muammlarni imkon qadar hal qilishga harakat qiling. Barcha g'oyalaringiz hayotga tatbiq etiladi, asosiysi, tavakkalchilikni talab qiladigan ishlarga aralashmang. Dam olish kunlarida rejallashtirilgan barcha tadbirlar ko'ngildagidek o'tadi.



**Egizaklar.** Haftaning ikkinchi yarmida tarang asablarni bo'shashtiring. Hafta so'ngida oila davrasida maroqli hordiq chiqaring. Bu darr ish munosabatlarini mustahkamlash uchun qulay bo'lib, o'z rejalarining borasida e'tiborli tanishlar bilan maslahat qilishingiz mumkin.



**Qisqichbaqa.** Bu hafta moliyaviy masalada tejamkor bo'lishga harakat qiling, pullarni birinchi uchragan ish uchun behuda sarflamang. Chorshanba kuni yangi tanishlar orttirilishi, foydali muiloqotlar o'rnatilishi kutilmoqda. Oilaviy muammolarni hal etish harakatini haftaning ikkinchi yarmiga qoldirganingiz ma'qul.



**Arslon.** Hafta boshida do'stlarga sizning yordamingiz zarur bo'lib qolishi mumkin. Seshanba vaqtingizni maishiy muammolarni hal etishga bag'ishlang. Chorshanba uchun rejallashtirilgan xizmat safarlar omadli kechadi, juma kuni esa bunday safarlardan uzoq turgan ma'qul.



**Parizod.** Bu hafta kuch-g'ayratingiz yetaridan ortiq bo'ladi. Lekin atrofdagi nafaqat raqiblar, balki hamkasblar va do'stlardan ham ehtiyoj bo'ling. Shu kunlarda katta pul mablag'i kelib tushishi mumkin, lekin uni o'ngu so'lga behuda «sochmang». Haftaning so'nggi kunlarini o'zingizga, sog'liqni mustahkamlashga va miriqib dam olishga sarflang.



**Tarozi.** Hafta davomida butun kuch va shijoatni to'plab, o'zingizga bo'lgan ishonch darajasini yuqori ushlang. Seshanba yangi shartnomalar va bitimlar tuzish uchun omadli kun. Lekin yaxshi tanish bo'lmagan odamlar bilan o'z rejalarining o'rtoqlashmang.



**Chayon.** Bu davrda ko'proq ijodiy ishlar bilan shug'ullanasisiz, bunda seshanba eng omadli kun hisoblanadi. Gap foydali bitimlar va istiqbolli shartnomalar haqida ketmoqda. O'z iste'dod va qobiliyatlarining ko'rsatishdan, do'stlarga ko'mak so'rab murojaat qilishdan cho'chimang. Juma kuni sevimli ish bilan shug'ullanish imkoniyatiga ega bo'lasiz.



**O'qotar.** Sizni qiziqarli va yodda qoluvchi voqealarga boy hafta kutmoqda. Ammo shubhalni va qaltilis moliyaviy ishlarga aralashmaslikka harakat qilib, mug'ombir tanishlar bilan muloqotni uzing. Dushanba kuni ba'zi hamkasblar bilan munosabatlar iziga tushadi, asosiysi, chegarani saqlab, betakalluflikdan yiroq bo'ling.



**Tog' echkisi.** Jamoaviy faoliyatda doim ishtirot eting, sizdag'i faoliyoti va shijoat ko'pchilikka ma'qul keladi. Osoyishtalik va farog'at uyg'unligini buzmaslik uchun har qanday vaziyatda o'zingizni tutib, og'irroq bo'lishga harakat qiling. Bu darr yangi rejalar tuzish va ularni amalga oshirish yo'llarini izlash uchun juda qulay.



**Qovg'a.** Bu hafta qadrondalar va do'stlar ko'magi, mehr-muhabbatidan to'liq bahramand bo'lasiz. Ushbu g'amxo'rlik ish faoliyatida zimmangizga yuklatilgan murakkab vazifalarning uddasidan chiqishga yordam beradi. Moliyaviy jihatdan ham muvaffaqiyat siz tomonda bo'ladi.



**Baliq.** Kelayotgan haftada sizni yangi taassurotlar va yorqin his-tuyg'ular kutmoqda. Salomatlikka jiddiy e'tibor qaratib, o'zingizga biroz dam bering va kelgusi uzoq muddat uchun kuch-quvvat yig'ing - bu sizga hozir juda zarur. Oila a'zolaringizga ko'proq vaqt ajratishga harakat qiling. Dam olish kunlari ular bilan birgalikda sayrga chiqing.

# ASRLAR SILSILASIDAN OTGAN OBIDA



**Odina masjidi – Qarshi shahrida saqlanib qolgan Qashqadaryo viloyatidagi eng qadimiy me'moriy yodgorliklardan biri. Ushbu me'moriy obidani buyuk sarkarda, sohibqiron Amir Temur 1385–1386-yillarda bunyod ettirgan.**

qal'a va uning ichkarisida Odina masjidi, Chorsu tijorat majmuasi va Amir hammomi kabi inshootlar qurdirib, Registon maydoniga asos solgan. XVI asrda Abdullaxon II bu yerda madrasa va sardoba bunyod ettirgan. Hozirgi kundagi joylashuvni Qarshi shahrining Eski shahar qismidagi Odina bog'iga to'g'ri keladi.

Masjid tarixiy manbalarda «Nasaf katta jome' masjidi» nomi bilan ham tilga olingan. Xalq orasida «Odina masjidi» deb atalgan. Masjidda 1924–1925-yillarda yozilgan 3 ta vaqf hujjati saqlanib qolning. Mazkur vaqf hujjatlarida ham masjid «Odina masjidi» sifatida qayd etilgan.


Odina masjidining tomonlari 50x40 metr mutanosiblikda qurilgan. Masjid ichidagi ibodat joylari keng, baland, tepasi kichik gumbazli, har-har joyda qalin qilib terilgan g'isht ustunlari bir-biriga ravoqlar orqali ketgan. Ana shunday o'nlab ravoq gumbazli xonalardan o'tib, gumbazli namozgohga chiqilgan.

Odina masjidi 1860-yillarning so'ngida chor Rossiyasi bosqinchilari tomonidan to'pga tutilib, vayron qilingan. Masjid gumbazi va minoralarining qoldiqlari 1914-yilgacha saqlangan. O'sha yili amir Said Olimxon farmoni bilan masjidda, umuman, bu yerdagi tarixiy obidalarda ta'mirlash ishlari olib borilgan. Biroq, afsuski, masjid gumbazi va minoralarini tiklashning iloji bo'Imagan. Faqat masjid oldidagi ayvon qayta tiklangan, u ham Buxoro amirligi tugatilgach, shorolar hukmronligining dastlabki yildayoq buzib yuborilgan.

Masjid Registon majmuasiga kirgan me'moriy inshootlardan biri hisoblangan. Tarixchilarning aytishicha,

Amir Temur Qarshi-

da mustahkam



Mustabid tuzum davrida Odina masjidida turli idoralar joylashtirildi. Hatto undan omborxona sifatida ham foydalilanigan. 1938-yilda esa, masjidning atrofi baland devor bilan o'rilib, mahbuslar saqlanadigan tergov hibxonasiaga aylantirilgan.

Qarshi shahrining 2700-yilligi munosabati bilan Odina masjidi qayta tiklandi.

Me'moriy yodgorlik Prezidentimizning 2018-yil 19-dekabrdagi «Moddiy mardaniy meros obyektlarini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qaroriga muvofiq, O'zbekiston moddiy va madaniy merosining ko'chmas mulk obyektlari milliy ro'yxatiga kiritilib, davlat muhofazasiga olindi. Davlatimiz rahbarining 2020-yil 8-oktabrdagi farmoyishi bilan 2021-yili masjidda «Qatag'on qurbanlari xotirasasi» muzeyi tashkil etildi. 11 ta bo'limdan iborat muzeyda Turkiston o'lkasida olib borilgan mustamlakachilik siyosati va qatag'onlarni aks ettiruvchi nobob tarixiy suratlar, xaritalar, turli ashyolar va boshqa qimmatli manbalar mavjud. Shuningdek, bu yerda kutubxona va yoshlar klubi ham faoliyat yuritadi.

**Sodiq RAHIMOV,  
o'z muxbirimiz.**

Qashqadaryo viloyati.



MUASSIS:

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI

Bosh muharrir –  
polkovnik  
Bernora SADICOVA

Bosh muharrir o'rinxbosarlari –  
podpolkovnik Azizjon FAYZIYEV  
kapitan Aziza BOHODIROVA

Mas'ul kotiblar –  
Jahongir SHAROFBOYEV  
Erkin SATTOROV  
Navbatchi –  
Sarvar SOBIROV  
Radik TUMPAROV  
Sahifalovchilar –  
Zokir BOLTAYEV  
Ilhom JUMANOV  
Akbar BOLTAYEV

Fotomuxbirlar –  
Abu KENJAYEV  
Ikrom HASANOV

**TELEFONLAR:**  
71-231-33-88;  
**Faks:** 71-231-40-05.

**Obuna masalalari  
bo'yicha:**

71-231-38-74;  
97-420-89-24

**Web-site:** www.postda.uz

**E-mail:** info@postda.uz

ISSN 2010-5355



Tahririyat hisob raqami  
h/r 23402000300100001010.

Bank kodи 00014.

O'zbekiston Respublikasi  
Iqtisodiyot va moliya  
vazirligi g'aznachiligi.

Shaxsiy h/v  
470010860262877031101179001  
STIR 200637499.

Tahririyatga kelgan qo'l-yozma va suratlar egasiga  
qaytarilmaydi.

Nashrimizdan ko'chirib bosilganda manba ko'rsatilishi shart.

Gazeta tahririyat kompyuter  
markazida terildi va sahfalandi.

«Kolorpak» MCHJ  
bosmaxonasida chop etildi.  
Korxona manzili: 100206  
Yunusobod tumani,  
Yangishahar ko'chasi 1-a-uy.

Gazeta O'zbekiston Respublikasi  
Prezidenti Administratsiyasi  
huzuridagi Axborot va ommaviy  
kommunikatsiyalar agentligi  
tomonidan 2020-yil 13-yanvarda  
0120-raqam bilan ro'yxatga  
olning.

Buyurtma № 1643.  
Bosilish – ofset usulida.  
Bichimi – A3. Hajmi – 6 bosma  
taboq. 50201 nusxada chop etildi.

**Obuna raqamlari:**  
Yakka tartibda – 180.  
Tashkilotlar uchun – 366.  
Bosishga topshirish vaqt – 22.00.  
Bosishga topshirildi – 21.00.  
Sotuvda kelishilgan narxda.

**MANZILIMIZ:**  
100070, Toshkent shahri,  
Shota Rustaveli 1-berk  
ko'chasi 9-uy.